

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI***

***Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti***

***TARIX fakulteti
ARXELOGIYA kafedrası***

***O'ZBEKISTON ANTIK DAVR MODDIY
MADANIYATI.
(Janubiy O'zbekiston misolida)***

Malakaviy bitiruv ishi

***Bajardi: Arxeologiya yo'nalishi 405-guruh talabasi
Djuraeva Zarnigor Toxirovna***

Ilmiy rahbar: t.f.n.Mirzaaxmedov Jamol Kamolovich

*Malakaviy bitiruv ishi Arxeologiya kafedrasida bajarildi. Kafedraning
2015-yil _____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya
etildi. (Bayonnoma № __)*

Kafedra mudiri:

dots.Jo'raqulova D.M.

*Malakviy bitiruv ishi YaDAKning 2015-yil _____dagi majlisida
himoya qilindi va ____foizga baholandi (Bayonnoma № __).*

YaDAK raisi:

YaDAK a'zolari:

Samarqand – 2015

O'ZBEKISTONNING ANTIK DAVR MODDIY MADANIYATI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA)

M U N D A R I J A

Kirish

I-Bob. Antik davr yodgorliklarini o'rganilish tarixi

II Bob. Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa yodgorliklari

**III Bob. O'zbekiston hududida antik davr yodgorliklari moddiy
madaniyati**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu, tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi, kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, tumani, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zamindan yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rku fayzini, mahobatini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonamiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqon ilmiga oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir.

Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlaridan yana biz bilan bellasha olishi mumkin deb ayta olamiz.¹ Ota bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, dini, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi.

Shunisi bizga ma'lumki, sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'batlantirilmas edi. Hukmron mafkura manfaatlariga xizmat

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1999, 132-бет.

qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi. Ahvol shu darajaga borgan ediki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qolgandik. Birovlar tomonidan yaratilgan tarix darslarini o'qir edik.

Olimlarimiz tariximizning turli davrlariga oid risolalar yozishmoqda. Tarixiy mavzuda yirik nasriy, nazmiy sahna asarlari yaratilmoqda. Yoshlarimiz Vatan, millat taqdiri uchun o'zlarini mas'ul sezib, bu bahslarda daxldorlik tuyg'usi bilan ishtirok etayotganligi quvonarli holatdir. Yurtimizda faol mehnat qilayotgan muhtaram akademiklar, olimlar, adiblar, noshirlar, avvalambor, tarixchilarimiz birgalashib doimiy izlanish, tadqiqot ishlarini olib bormoqda. O'zbek xalqining tarixiy o'tmishi, albatta, chuqur ilmiy asoslarga tayanishi maqsadga muvofiqdir. Yaxlit qilib aytganda, ilmiy konsepsiya lozim bo'ladi. Ma'rifatparvarlik biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsak, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz. Yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi.²

Har bir inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimning ibtidosi qayerda, uning oyoqqa turishi, tiklanishi, takomillashish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o'ziga berishi tabiiy. Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, yuqoridagi savollarga duch keladi. Ular bunday to'g'ri xulosalar chiqaradi. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, qandaydir aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni komillikka o'rgatadi. Irodasini mustahkamlaydi. Davlatchilik bugungi kunda o'ta siyosiy masala bo'lib turibdi. Nega deganda, O'zbekistonda davlatchilik bo'lmagan deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi

² Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1999, 133-135-бетлар.

bo'layotgan, kerak bo'lsa, xalqaro jamoatchilikni shunga ishonitirishga urinayotgan kunlar ham bor. Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan ilhomlantirishimiz lozim. Tarix instituti, Fanlar akademiyasi haqqoniy tarixni yoritish mezonlarini, uning poydevorini, asosini belgilab berishi kerak.³

O'zbekiston janubiy sarhadlarida antik davr tarixining o'rganilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish xususida ko'plab qarorlar chiqarildi. Tarix instituti faoliyatini yaxshilash uchun chiqarilgan Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham muhim o'rin tutadi.

Antik davr Surxondaryo viloyatidagi tarixiy yodgorliklarni o'rganish bo'yicha bir necha bor arxeologik ekspeditsiyalar amalga oshirilgan. Qoratepa, Farzintepa, Dalvarzintepa, Xolchayon kabi manzilgohlarda izlanish olib borgan tadqiqotchilarning ko'plab monografiya va tarixiy adabiyotlari mavjud. Bunda O'zFA Arxeologiya instituti otryadi, san'atshunoslik ekspeditsiyalari olib borgan tadqiqot natijasida ham ko'plab arxeologik materiallar qo'lga kiritildi. 1949 yil O'zFA arxeologik otryadi Surxondaryo viloyatining, Termiz, Sariosiyo, Dalvarzintepa kabi markazlarida arxeologik qazuv ishlarini o'tkazdi. Unga L.I.Albaun boshchilik qildi. Bundan tashqari, o'tkazilgan arxeologik qidiruv ishlari ham antik davr Surxon vohasi haqidagi ko'plab ma'lumotlarni bera oldi. Shaharlarning xarobalari, madaniy qatlamlar, manzilgohlar, dala-hovlilar, inshootlar Surxondaryo viloyatida aynan antik davrda ko'pchilikni tashkil etadi. O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi ham bizga bir qancha arxeologik materiallarni taqdim etdi. Tadqiqotchilardan F.A.Pugachenkova, B.A.Turgunov, E.V.Rtveladze,

³ Каримов И.А. Биз келажғимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1999, 148-149-бетлар.

A.S.Sagdullayev, Z.A.Hakimov, I.Is'hoqov, S.Balelov, D.Ilyasov, S.Sadnuk, V.Pardayev, I.P.Lunkova, S.V.Leyagushkina, V.A.Luneva, A.Asqarov, L.Albaunlarning xizmatlari beqiyosdir.

Антик davr O'rta Osiyo, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston xalqari tarixidagina emas, balki butun dunyo madaniyatining tarixiy taraqqiyotida aloxida o'rin egallaydi. Bu davrda etnik madaniyati, tili va dinlari xar xil bo'lgan xalqlarning siyosiy jixatdan birlashishi ayniqsa muxum ahamiyatga ega bo'ldi. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos yangi madaniyat shakllandi va rivojlandi. O'z navbatida, keyingi asrlar madaniyatining taraqqiyotiga xam zamin bo'lib xizmat qildi. Shundan so'ng Sharq va g'arb madaniyatlarining o'zaro ta'siri yangi tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Ellin madaniyatining an'analari kushonlar davrida ijobiy jixatdan qayta shakllandi va yangicha talqin qilina boshlandi.

Yozma manbalarga qaraganda «katta yuyechji» qabilasi Yunon-Baktriya shoxligi ustndan g'alaba qozongandan so'ng Amudaryonnng o'ng soxiliga (Shimoliy Baktriya) joylashadi va beshta knyazlikka— Xyumn, Shuanmi, Xnse, Dumi va Guyshuanga bo'linadi. Ko'chmanchi qabilalar Baktrpyaning boy an'analari, taraqqiy etgan davlat tuzumi va yuqori rivojlangan madaniyatining shoxidi bo'ldilar.

Tabiiyki, bu xol yuyechji xokimlaridan bozorni to'ldirish uchun yangi tangalar chiqarpshni talab qilganlar, ularning esa bu soxada tajribasi yo'q edi. Shuning uchun ular eng oddiy usul, ya'ni mazkur territoriyada muomalada yurgan Yevkratid va Geliokl tangalariga taqlid qilib tanga zarb qila boshladilar

Olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, Geliokl tangalariga taqlid qilib chiqarilgan tangalar bu davrda ko'proq muomalada bo'lgan. Tanga-larning old tomonpda noma'lum shoxning boshi, orqa tomonida yunonlar xudosi Zevsning xaykali tasvirlangam. Qizig'i shundaki,

bu xildagi .tangalarning asosiy qismi hozirgi Surxondaryo viloyatidan topildi. Tojikistonning shahar va qishloqlarida mazkur xildagi tangalar oz, Janubiy Baktriyada esa sanoqli.

Demak, paydo bo'layotgan yangi davlatning poytaxti Surxondaryoda bo'lgan. Shunga asoslanib, Pugachenkova G. A. kushon-guyshuan viloyatining poytaxti Dalvarzintepa o'rnida bo'lsa kerak, deb xisoblaydi. Yangi davlat taraqqiyotining ikkinchi Vima Kadfiz vafotidan keyin uning o'rnini o'g'li Kanishka egalladi. Bu shox xukumdorlik qilgan yillarda kushonlar saltanati o'z taraqqiyotini eng yuqori nuqtasiga ko'tariladi. Kushonlar saltanatiga qarashli yerlar kengaytirildi, hozirgi Panjob, Sind, Uttar Pradesh shtatlaridagi yerlar qo'shib olindi. Sharqda saltanatning chegarasi Banorasgacha yetdi. Kanishka Xi-toy imperiyasi bilan urush olib borib, undan Sharqiy Turkistonni tortib oldi. U Parfiya saltanati bilan bo'lib o'tgan janglarda ham bir qator g'alabalarni qo'lga kiritdi. Ayniksa, Shimoliy Baktriyadagi Xolchayon, Dalvarzintepa, Zartepa, Qadimiy Termiz va uning yaqinidagi Qoratepa, Fayoztepa, Ayrtomlarda va Janubiy Baktriyada Begram, Surxkotal va Dilbarjinda o'tkazilayotgan qazish ishlarining natijalari diqqatga sazovordir. Bu qazish ishlari baktriyaliklarning kushonlar davridagi ijtimoiy taraqqiyoti, iqtisodiy va maishiy turmush madaniyati, diniy tasavvurlari, kasblari to'g'risida ma'lumotlar olish maqsadida olib borilmoqda. Hozir arxeologlar bu soxani o'rganishda jiddiy yutuqlarga ham erishdilar.

Xolchayon, Dalvarzintepa, Zartepa, Qoratepa va Dilbarjinda o'rganish chog'ida olingan ma'lumotlar bilan tanishtirib o'tamiz. Xususan, Xolchayondagi qazish ishlairiga ko'proq to'xtalamiz. Chunki Xolchayon, bir tomondan, hozir eng yaxshi o'rganilgan yodgorliklardan biri xisoblanadi, ikkinchi tomondan, unda olib borilayotgan tadqiqotlar kushonlar

madaniyatining o'rganishga yangi muhim davrni ochdi, uning shakllanish yo'llarini ko'rsatib berdi

I Bob. Antik davr yodgorliklarini o'rganilish tarixi

Antik davr yodgorliklarini paydo bo'lishi uzoq vaqt olimlar o'rtasida katta ilmiy munozaraga sabab bo'lib kelgan edi. Bu afsonaviy podsholik tarixini o'rganish o'tgan asrda boshlangan edi. Uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqotlarnatijasida ko'plap o'sha davirga oid shaxar, qala, ibodadxona va shu kabi yodgorliklar aniqlandiki bularning barjasi bizga Kushonlar davlatining naqadar gullab yashnaganligini namoyon qiladi .U o'z davrida dunyoning eng kuchli to'rtta davlatidan biri hisoblangan shu bilan birga Buyuk Ipak yo'lining eng muxim qismida joylashganligi, bu orqali mamlakatlar ortasida madaniy aloqalarning kuchayishida muxim ahamiyat kasb etganini ko'rishimiz mumkin . Kushonlar davriga oid yodgorliklar Shimoliy Baqtiriya xududa ilk marotaba 1926-1928 yillarda professor B.P.Denike raxbarligida Maskvaning Sharq xalqlar madaniyati muzeyining ekspeditsiyasi tomonidan arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Ayniqsa, Zo'rmo'la tepaligidagi qazishmalar natijasida topilgan topilmalar ,stupalarning davriy sanasini 4-7 asrlarda deb katta xatoga yol qo'ygan edi.⁴

1932-yilning kuz faslida katerda Amudaryoda suzub ketayotgan chegaraghilar Ayritomga yaqin joyda oq tosh ko'rganlar, bu toshga odamlar tasviri tushirilgan edi .Ular bu toshni daryo tubidan ko'tarib olib, Toshkentga olimlarga xabar berdilar .Tezda bir gurux olimlar Termizga yetib keldilab keldi bu olimlar orasida arxolok M.E.Masson xam bor edi.

1933-yilda M.E .Masson boshchiligida arxeologik ekspeditsiya tashkil etildi .Ekspeditsiya o'z ishini mazkur tosh qulab tushgan tepalikni o'rganishdan boshladi .Malum bo'lishicha bu yer budda ibodadxona xarobasi bo'lib, undan xar xil mazmundagi xaykallar topilgan. Ular oxaktoshdan ishlangan ajoyib frez bilan bezatilgan edi.Ayniqsa, barklar orasida beshta sozanda surati o'yib ishlanganijuda muxim. Nog'arachi bilan rang-borang kiyimlardagi sozanda ayollar surati diqqatga sazovardur. Bu sozandalardan biri ud,yana bittasi arfa chalayabdi. M.E .Masson

⁴ Денике Б.Р.Термиз (работы экспедиции Музея восточных культур в 1927 г.)Новое время //1928

bu yodgorliklarni davriy sanasini eramizning 1-2 asrlarda qurilgan degan xulosaga keldi.⁵

M.E.Masson boshchiligidagi ekspedisiya dastlabki ma'lumotlarni qo'lga kiritadi. Ayritom shahar xarobasi Termizdan 17 km uzoqlikda joylashgan. Amudaryoning o'ng sohiliga yaqin bo'lib, uch tomondan devor bilan o'rab olingan. Turar-joy, manzilgohlarning qoldiqlari saqlanib qolgan. G'arbiy tomonidagi uchta minora butunlay yemirilgan. Devorlariga g'isht ishlatilgan. Paxsa bloklar ham mavjud. 1933 yil M.E.Masson Ayritomning ikkita tepaligiga shurf tashladi. Birinchi shurf janubiy qismni qamrab olgan.. Ayritomning shimoliy qismi ham shurf tashlash asosida tahlil qilib chiqildi Xonalarning devori suvoq qilingan. Shimoliy-sharqiy burchakda asosiy markaz hisoblangan xonalar qurilgan. Kiyimlarning ham ba'zi qoldiqlari saqlanib qolgan. M.E.Masson suvoq qilish tartibi, uning o'ziga xos tomonlariga ham alohida e'tibor qaratgan. Alebastr bilan «qo'pol» ravishda suvoq qilingan holatlari ham aniqlanadi. M.E.Masson shunday to'xtamga keladiki, binolarning qurilishi ikki bosqichda amalga oshiriladi. Islom dini yoyilishi davriga kelib, budda yodgorliklarining ko'pchiligi yemirilgan edi. M.E.Masson binolarning asosiylarini budda monastri yoki hukmdor saroyi bo'lganligini ta'kidlab o'tadi.

1933 yil Ayritomda arxeologik qidiruv ishlari olib borilishi natijasida yunon-baqtriya madaniyati xususida ham ko'plab ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Ayritomning o'zidan ko'plab materiallar qo'lga kiritildi. 1937 yil Ayritom yana arxeologik o'rganib chiqildi. M.I.Vyazmitina boshchiligida mazsus otryad tuzildi. I.A.Suxareva, A.S.Kaxarovalar boshchiligidagi ekspedisiya ham ko'plab natijalarni bergan. 1937 yilgi qazuv ishlari 288 m² ni qamrab oldi. Qazuv ishlari kvadrat shaklda olib borilib, tadqiqot yana davom ettirildi. G'ishtlar turli xil o'lchamda, xonalar, yo'laklar to'g'ri burchakli shaklda qurilgan. 1933 yilning o'zidayoq Ayritomning shimoliy-g'arbiy qismida markaziy ibodatxonalar borligi aniqlangan. 1937 yilgi qidiruv esa batafsil olib borilib, turli xil materiallar ro'yxatga olingan.

⁵ Пидяев Ш.Р.Посиления кушанского времени Северн Бактрии .Ташкен .1978 г. Стр.7

Diniy munosabatlarda markaz hisoblangan ibodatxonalardan tashqari, yana bir necha xonalar aniqlandi. Bunda ikkita fakt asos qilib olinadi: 1) ashyoviy materiallar; 2) binolarning ayrim qismlari saqlab qolinganligi.⁶

Obyektlarning yopiq shaklda bo'lganlarini o'rganish ancha qiyin kechgan. Kvadrat shakldagi g'ishtlar yodgorlik, ya'ni shahar xarobasining barcha yerlaridan topildi. Monastr, diniy xizmatchilar uchun umumiy yotoqxonalar ham qurilganligi ma'lum bo'ladi. Ayritomdagi budda monastrlari Sharqiy Turkiston, Hindiston, Afg'onstondagi monastrlarga o'xshash bo'lgan.⁷

1937 va 1938 yillardagi Termiz arxeologik ekspeditsiyasi mantiqan O'rta Osiyodagi yirik arxeologik tadqiqot omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ular 1936 yil o'z tadqiqotlarini rejalashtirilgan holda amalga oshirishgan. Alohida tarixiy arxeologik faktlar tiklandi. Shaharlarning umumiy taraqqiyoti haqida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar qo'lga kiritildi. 1937-1938 yillardagi dala ekspeditsiyasi bir necha otryod ishtirok etdi. Arxeolog A.P.Okladnikov, ularning yordamchilari yodgorliklardagi holatlarni aniqlashda samarali ishlar olib borishdi. Qadimgi Termiz qal'ani o'rganishda (1937) san'atshunos M.I.Vezkmitina, arxeolog I.A.Suxarev, V.D.Jukov, G.P.Savelyevlar yetakchilik qilib kelgan. 1937 yil Ayritom shahar o'rnini ochishda M.I.Vyazmitina, I.A.Suxarev, A.S.Kaxarovlar ishtirok etishdi. 1937 yil Chingiztepadagi budda monastri o'rganib chiqildi. Unda arxeologlar Ye.G.Pchelinova, A.S.Kaxarov, T.E.Surovin, arxitektor G.A.Pugachenkovalar yetakchilik qilishgan. 1937-1938 yillar Termiz rabotida (uning asosan sharqiy qismida) tarixiy topografik o'rganishlarni arxeologlar V.A.Shishkin, G.A.Pugachenkova, O.V.Sosnav, A.S.Kaxarovlar amalga oshirdilar. Geologlar P.I.Gnyazov, R.Nabiyev, O.V.Sosnav, bir necha qal'alarni ochib o'rganishdi. Boysuntog'da olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida ko'plab tarixiy manzilgohlar aniqlandi. Ushbu yodgorliklar katta hududni egallaydi.⁸

⁶ Тургунов Б.А К изучению Айритама //Из истории античной культуры Узбекистана .Ташкент .1973г. стр 68-75

⁷ Термизская археологическая экспедиция. II том. Изд.: Акад. Наук. –Т., 1945. –Стр. 25-26-29.

⁸ Массон М.Е.Городища СтрогоТермеза и их изучение // ТАКЭ, Т. 1. –Ташкент, 1940, стр 5-122; Пидяев Ш.Р. Поселения кушанского времени Северн Бактрии. -Ташкент, 1978 г. -Стр.

Tadqiqotchilarning bir guruhi Chingiztepaning asosiy maydonlari o'rganib chiqdilar. Antik shaharlarning umumiy maydoni 10 ga (hektar) bo'lganligi ma'lum bo'ladi. 1938 yil antik shahar devorlari to'liq qazilib, atroflari ham belgilab olindi. davriga oid bir qancha obyektlar ro'yxatga olindi. 1937-1938 yillardagi ishlar shuni ko'rsatadiki, Termiz atrofidagi shahar xarobalari o'z davrida asosiy markaz bo'lib hisoblangan. Kushonlar davrida ushbu shaharlarning ko'pchiligi gullab-yashnagan. Kadfiz II, Kanishka, Xuvishkalar tomonidan zarb qilingan tangalar ham topildi. O'rta Osiyodan Xitoyga o'tadigan tranzit yo'llari borligi aniqlandi. Budda monastrlari ichida Qoratepa alohida o'rin egallaydi. Qoratepaning yirik qismlari bevosita o'rganib chiqildi. Uning jami maydoni 8 ga bo'lib, katta hududni egallagan, yarim g'or hisoblangan. Uchta g'or shaklidagi xonalar, kvadratsimon. . Oxirgi yillarga kelib, Qadimgi Termiz rayonida doimiy qidiruv tadqiqot ishlari olib borildi. Tosh asriga oid bo'lgan ko'plab yodgorliklar aniqlandi. 1938 yil M.E.Masson boshchiligidagi navbatdagi arxeologik ekspedisiya Termizdagi ishlarini davom ettirdi. Qadimgi shaharni to'liq stratigrafik o'rganish boshlandi. Mahalliy Surxondaryo muzeyi otryadi ham ekspedisiya tarkibiga kiritilgan edi. Natijalar ekspedisiya uchun barcha rejalar amalga oshirilganligini anglatar edi. Qadimgi tarixiy yodgorliklarning asosiy xususiyatlari o'rganib chiqildi. olingan edi. Sheroboddaryo atrofini o'rganishda Termiz muzeyi direktori G.V.Parfenovning ham bir qancha ekspedisiyalari amalga oshirilganligi bizga ma'lum. G.V.Parfenov boshchiligidagi ekspedisiya Boysun rayonini ham o'rganib chiqdi. Bir qancha g'orlarda kuzatuv ishlari olib borildi. Machay qishlog'i atrofida ro'yxatga olish ishlari olib borildi. Shurf aynan ushbu yerga tashlangan edi. Bu yerda insoniyat qadimdan yashaganligi ma'lum bo'ldi.Qadimgi Termiz hududi o'rganilgan, birinchi otryad yana Boysun rayoniga yo'l oldi.

Surxondaryo muzeyining kompleks ekspedisiyasi o'z ishini boshladi. Shu bilan bir vaqtda muzey birinchi otryadi yangi qishloqlarda ham ekspedisiyalarini davom ettirdi. 1938 yil Teshiktoshdagi qazuv ishlari asta-sekin tugallandi va Surxandaryo voxasida insoniyot o'rta poleolid davridan yashaganligi A.S.Oklanikov tamonidan isbotlandi. Boysun yaqinidagi yangi hududlardan

qimmatli materiallar olindi. Qisqa vaqt ichida Machay qishlog'ida tosh asriga oid ko'plab yangi manzilgohlar ro'yxatga olindi. O'rta Osiyoning qadimgi tarixida muhim o'rin egallashi aniq bo'ldi.

Kushonlar imperiyasi, Kadfiz I, Kadfiz II, Kanishka haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Imperiya yerlari Sug'd, Parfiya, Afg'onistonning katta qismi, Hindiston va Sharqiy Turkiston bilan chegaradosh bo'lgan. Tarixiy manbalarda ushbu imperiyaning birinchi hukmdori sifatida Kadfiz tilga olinadi. Budda adabiyotida Kanishkaga alohida e'tibor qaratiladi. Fransiya, Angliya arxeolog-tadqiqotchilari Hindiston va Afg'oniston, Sharqiy Turkiston bilan chegara hududlarda izlanishlar olib borib, bir qator yodgorliklarni ro'yxatga olishdilar. Ellin, hind, eron madaniyati an'analari ma'lum bo'la boshladi. Bu yerlarda qadimdan kishilar turmush tarzi yo'lga qo'yilganligi ma'lum bo'ldi. Arxitektura yodgorliklari Kanishka davrida ko'plab qurilgan. Uning davrida qurilgan poytaxt shahar, binolar alohida ahamiyat kasb etadi. Xitoy sayyohlari bu haqida ko'plab ma'lumotlarni yozib qoldirgan. yodgorliklarga Kanishkaning nomi yozilgan: «Manaraja Kanishka». Peshovar yaqinida Kanishka Sangxarim monastrini qurdirgan. Kushon podsholarining nomlari bu yerga ham yozilgan. IX asrga qadar yirik budda markazi vazifasini bajargan.²

Yunon-Baqtriya san'ati muammosi bilan uzoq vaqt K.V.Trezer shug'ullanib keldi. Tadqiqot natijalarini 1940 yilgi monografiyasida qayd qilib borgan. Termiz rayonida olib borilgan qadimiy arxeologik ishlardan so'ng 1948 yil O'zFA Tarix va arxeologiya institutining arxeologiya sektori tomonidan aynan Angor atroflari o'rganib chiqildi. L.I.Albaum bin necha yil davomida antik davr shahar xarobalari, ularning joylashgan yerlarini aniqlay boshladi.L I Albaum bilan V.D.Jukovlar Xayrobodtepa stratigrafik qazuv ishlarini olib bordi. O'zbekistonning janubida va Tojikiston xududida yo'qolib ketgan kushonlar davri yodgorliklarini arxologik jixatdan o'rganish ishlari kengaydi .1949-yilda L.I. Alb'aum boshiligidagi Surxodaryo xududida tadqiqot olib bordi .Keng kuzatishlar va tadqiqotlar natijasida kushonlar davriga oid bo'lgan bir qancha yodgorliklar aniqlangan .Shulardan ,Xayitabodtepa , Ismoiltepa,Jarqo'rg'on tumanida Zartepa ,Xayrobodtepa kabi

yodgorliklar aniqlangan. Termiz xududidan 26-km shimoliy g'arbda joylasgan qodimgi shaxar xarobasi Zartepada daslabgi arxolagig tadqiqotlar 1951-1952-yilda arxolog L.I.Al'boum tamonidan tekshirilgan U kivatirat shakilda bo'lib tamonlarning uzunligi 400-m shimoliy sharqiy burchagida ark ,janubiy sharqiy qismida baland tepalik saqlanib qolgan .Bu yerdan ko'plab terrako'ta va sopol buyumlar ,jumladan odam va hayvon tasvirining bosh qismi,bosma naqishlar ,300-ga yaqin tangalar topilgan

Oxirgi yillarda Janubiy Tojikistondagi Kofirnigon, Kayqubod shahar xarobalarini o'rganish tezlashdi. 1950-1951 yillar M.M.Dyakonov, 1952 yil esa A.D.Mandelstam tadqiqot olib borishgan. 1955-1959 yillar A.D.Mandelstam Bishkent vohasini, 1953-1954 yillar B.A.Litvinskiy Vaxsh vohasidagi Ko'hnaqal'a, Qulqal'ani o'rgandi. Hisor vohasidagi shaxrinov va Qashqirqal'ani 1955 yil Ye.A.Davidovich tahlil qilib chiqdi. esa Mahalliy fortifikasiya qurilish texnikasi, kulolchilik san'ati ma'lum bo'la boshladi. Yunon-Baqtriya san'atining bir qator badiiy obyektlari haqida G.A.Pugachenkova va L.I.Rempel kitoblaridan ma'lumot olishimiz mumkin.

O'rta Osiyodagi tarixiy yodgorliklarda arxeologik tadqiqot ishlari davom ettirildi. Baqtriya badiiy san'atining bir qator xususiyatlari aniqlanib borildi. Kushonlar va ularga qadar bo'lgan barcha yodgorliklarni izlab topish asosiy talablardan biri bo'lib hisoblangan. Surxondaryo, Kofirnigon, Vaxsh kabi Amudaryo oqimlarida antik madaniyat yuksak rivojlanganligi ma'lum bo'ldi. Antik qatlamlarni o'rganish katta davr va qiyinchiliklarni talab qilgan. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi, sug'orish tizimi, antik madaniy qatlamlar qisqa vaqt ichida ma'lum bo'lgan emas.

1959 yil bahorida Ko'hna Termiz atrofida qazuv ishlari faol olib borildi. Termiz viloyat o'lkashunoslik muzeyi ham o'z faoliyatini antik davr yodgorliklarida davom ettirgan. Muzey xodimi V.A.Kozlovskiy bir necha yil davomida viloyatdagi ko'plab arxeologik yodgorliklarni ro'yxatga olgan. Arxeologik ishlarning koordinasiyasi V.A.Kozlovskiy tomonidan tuzilgan. 1959 yil kuziga kelib O'zFA San'atshunoslik instituti Xolchayonda arxeologik qidiruv

ishlarini davom ettirdi. Bir necha hafta davomida tepaliklar surilib, yangi yodgorliklar ochildi. Termiz muzeyining ilmiy xodimi L.N.Terejina Toshkent davlat universiteti talabasi K.Yusvaliyevalar ham bu qazuv ishlarida faol ishtirok etgan.⁹

1960-yil san'atshunoslik ekspeditsiyasi O'zbekiston janubidagi san'at va arxitektura yodgorliklarini o'rgana boshladi. Aynan Xolchayonni o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Tajribalar asos qilib olinib, Xolchayondagi qidiruv ishlari davom ettirildi. Xolchayondagi san'atshunoslik ekspeditsiyasining dala ishlari markaziy o'rinni egalladi. Xolchayonning ko'plab hudud, qismlariga shurf tashlandi. Stratigrafik kuzatuv ishlari yo'lga qo'yildi. Qurilish uslubi, rassomchilik va haykaltaroshlik an'alarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Areologik qazuv 2x2 shaklida olib borilib, barcha maydon ro'yxatga olindi, San'atshunoslik ekspeditsiyasi Surxondaryo viloyatida tadqiqot ishlarini olib borgan. 1959 yil Xolchayon va Ayritomda G.A Pugachenkova boshchiligida arxeologik ekspeditsiya amalga oshirildi. Sho'rtepa 1960 yil, keyinchalik 1967 yillar B.Turgunov boshchiligida qazuv ishlari o'tkazildi. Surxon vodiysining ayrim yerlarida arxeologik qazuv ishlari doimiy amalga oshirilib borilishi kuzatiladi. 200 dan ortiq shahar o'rni, dala-hovli, qo'rg'on xarobalari, ko'plab arxeologik materiallar qo'lga kiritildi. Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanidagi Dalvarzintepa ham bunda alohida o'z o'rniga ega. Dalvarzintepani arxeologik o'rganish XX asr 30-yillarida boshlangan. Yirik shahar o'rni hisoblangan Dalvarzintepa mahalliy o'lkashunoslarning diqqatini tortgan. Xususan, Termiz o'lkashunoslik muzeyi tomonidan ro'yxatga olingan. 1949 yil O'zFA Arxeologiya otryadi L.I.Albaun boshchiligad ikki haftalik arxeologik ekspeditsiyani o'tkazdi. Ekspeditsiya obyektlari Termizdan Sariosiyogacha bo'lib, Dalvarzintepa ham asosiy rejaga kiritilgan. Dalvarzintepa shahar o'rnidan ko'plab sopol bo'laklari topildi. Yaxshi holatda bo'linsa-da, tangalar ham saqlab qolingan. Ular VI-VII asrlarga tegishli. Sopol bo'laklari, shubhasiz, Kushonlar davriga tegishli. Ayrim predmetlar undan

⁹ Пугаченкова Г.А. Халчаян // Проблема художественной культуры Северной Бактрии. Отв.ред. Ремпаль Л.И. Изд.: «Фан». –Т., 1966. –Стр. 7-8.

ham oldinroq davrni o'zida ifodalaydi. 1959 yil kuzida – 1960 yil bahorida sobiq O'zSSR FA san'atshunoslik ekspeditsiyasi Xolchayon shahar o'rnini bilan parallel ravishda Surxondaryoning markaziy rayonlarida joylashgan tarixiy yodgorliklarni o'rganib chiqdi. Asosiy vazifalardan biri tarixiy yodgorliklarning joylashgan yerlarini aniqlash. Arxeologik materiallar, doimiy kuzatishlar natijasida shunday xulosa qilinganki, dalvarzintepa antik davr Surxondaryodagi asosiy shahar markazlaridan biri bo'lgan.

Surxandaryo viloyati Sho'rchi tumani markazi-Sho'rchi shaxridan 10-km shimoliy sharqda joylashgan Dalvarzintepa yodgorligida daslabgi arxeologik tadqiqotlar o'tgan asrning 60-yillarida amalgam oshirilgan edi. Kushonlar davrida o'z rivojlanishining yuqori cho'qqisiga yetgan. Bu miloddan avvalgi III-II asrlarga to'g'ri keladi. VI-VII asr, ya'ni Dalvarzintepaning yemirilish davri hisoblanadi»¹⁰.

1960 yil V.A.Nilsen va A.V.Shukurovlar Dalvarzintepaning topografik rejasini tushirdilar. Shahar atrofi qazilib chiqildi. 1964 yil esa L.I.Albaum boshchiligidagi arxeologik otryad shahar o'rnini devorlarini ochdilar. Shahar burchagi buldozer yordamida tozalab ochildi. Qadimgi uydan uzoq bo'lmagan joyda ikkinchi xona aniqlandi. Stratigrafik shurf tashlandi. 1962-1963 yillar O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi Dalvarzintepa maydonida qidiruv ishlarini olib bordi. Maqsad antik fortifikatsiyani o'rganish edi. 1967 yil ushbu ekspeditsiya yana O'zbekiston janubida Termizdan so'ng yirik bo'lgan Dalvarzintepa shahrida doimiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdi

Dalvarzintepa vohaning qulay hududini egallagan bo'lib, Boysuntog' va Bobotog' o'rtasida joylashgan. tadqiqot ishlari yo'lga qo'yildi. O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi bunda asosiy tashabbusni o'z zimmasiga olgan. Dalvarzintepada yillik qazuv ishlari olib borildi. Qal'aning janubiy-g'arbiy qimiga stratigrafik shurf tashlanib, D-1, D-2 guruhlarini belgilab olingan. D-1 ning bo'lingan devor qismlari atroflari; D-2 ning shimoliy-g'arbiy qism. Dalvarzintepa shahar o'rnini, asosan, qal'a devorlarini o'rganishdan boshlangan. Bu – D-3, D-4, D-

Ularning ikkitasi – maydonning yuqori qismida joylashgan. G'arbiy mavzeda yirik yashash uylari bo'lib, D-5, D-6, D-10, D-12 deb shartli nom berilgan.¹¹

Ekspedisiya turli xil shakldagi san'at yodgorliklarini ham ochib o'rgandi. Qazuv natijalarida shahar o'rnining bir qancha punktlari belgilab olindi. Materiallar, topilmalar monografiya, maqolalarda yoritib borilgan. Hamza nomidagi san'atshunoslik institutining tarix sektori xodimlari Dalvarzintepani guruh bo'lib o'rganishga kirishgan. Tadqiqotchilarga umumiy rahbarlikni G.A.Pugachenkova amalga oshirdi. D-1, D-3, D-4, D-9, D-11 obyektlarida qazuv ishlari amalga oshirildi. Ekspedisiya boshlig'ining o'rinbosari B.A.Turgunov bo'lib, D-1, D-6, D-12; E.V.Rtveladze esa D-1, D-2, D-7, D-9, D-13, D-14 da; T.V.Balyayeva esa D-5 obyektlarida qazuv ishlarini davom ettirdilar. Dala ishlari jarayonida haykal, rasm bo'laklari, idishlar, tangalar topildi. Ilmiy badiiy restovrasiya laboratoriya xodimlari X.Xusniddinxo'jayev, V.N.Lunev, S.V.Syavushkina, N.V.Sotnikov (arxeologik ekspedisiyaa oxirgi ishtiroki)lar ham qazuv ishlarida faol ishtirok etishdilar. Grafik ishlar, qazuv ishlarini yo'lga qo'yishni A.Islomov bajargan. Qazuvda laboratoriya sifatida I.S.Morozov (D-2, D-4), Toshkent davlat universiteti kafedra talabalari L.nekrasova (D-2, D-8, D-9, D-10); E.Jo'rayev (D-9); A.Sagdullayev (D-2), M.Is'hoqov (D-9) ham ishtirok etishgan. Shuningdek, teatr-badiiy institutining san'atshunoslik bo'limi talabalari ham amaliyot ishlarini o'tkazishgan. Dalvarzintepa shahri haqida ko'plab ma'lumotlar qo'lga kiritildi.¹²

Qoratepa haqida boshqa maxsus to'plamlar chiqarildi, yuzga yaqin ilmiy maqolalar dunyoning ko'plab mamlakatlarida nashr ettirilgan. O'zbekiston janubidagi Kushonlar davri uchun xos bo'lgan yirik manzilgoh bo'lib hisoblanadi. Qoratepa – O'rta Osiyodagi yirik budda markazi ekanligi ham o'z isbotini topib bordi. Qadimda O'rta Osiyo – hind diniy aloqalari bo'lganligidan ham guvohlik beradi. 1961-1980 yillar Qoratepadagi qazuv ishlarida turli xil ma'lumotlar qo'lga kiritilib, unda ko'plab tadqiqotchilar ishtirok etishdi. Unda quyidagi arxeologlar:

¹¹ Дальварзинтепе Кушанский город на юге Узбекистана. Отв. ред Решпель Л.И. изд.: «Фан», -Т., 1978. –Стр. 9-.

L.K.Sergeyeva, A.F.Berdnikov, V.L.Iapushnev, N.S.Sыcheva, V.N.Mazurina; sharqshunoslar: G.V.Grek, V.K.Lukonin, V.L.Sыchev, V.V.Vortogradova, V.A.Livshis, S.B.Pevzner; san'atshunoslar: V.A.Meshkoris, O.N.Shegolev; kimyogarlar: E.N.Ageyeva, V.Ya.Birmten, Z.M.Jelninskaya, L.V.Kuznesova, L.G.Redotova Qoratepa materiallarini tikshlashda rassomlar: R.M.Sыtina, N.D.Dorofeyev, Yu.A.Ruzovin, I.Ya.Sokolov, S.Filoatovlar edi.¹³

O'zFA San'atshunoslik instituti qoshidagi ekspedisiya a'zolari turli vaqtlarda qidiruv tadqiqot izlanishlarini olib borishdi. 1960 yil kuzida Sh.Toshxo'jayev, 1961 yil B.Turg'unov, 1961-1962 yillarda D.Sidorova, D.G.Zilper, 1960 yil Toshkent davlat universiteti talabalari Z.Alimov, V.Goryacheva, M.Safarov, K.Yusvatevlar o'tkazgan amaliy tadqiqot ishlari jarayonida ham ko'plab materiallar qo'lga kiritildi. Dalvarzintepa bilan bir vaqtda Xolchayonda ham dala tadqiqot ishlari davom ettirilgan. Denov va Xolchayon atroflaridagi madaniy qatlamlar ro'yxatga olindi. 1960 yil kuzida L.I.Rempel boshchiligidagi ekspedisiya Boysun rayonida o'z ishini davom ettirdilar. 1960-1963 yillar san'atshunoslik ekspediyasi a'zolari V.G.Dolinskaya, X.Xusnuddinxo'jayev, D.Ro'ziboyevlar Xolchayon va boshqa tarixiy yodgorliklarni o'rgandilar.¹⁴

Malumki Qortepani arxologik jixatdan o'rganish ishlari o'tgan asrning 20-yillarida boshlangan edi . uni keng qamrovli o'rganish ishlari 60-yillarda jadallashdi Ayniqsa 1963-yilda B.A Staviskiy boshchiligidagi Maskivadagi Sharq xalqlar madaniyati muzeyinin g arxolog ekspedisiyasi muxum axamiyat kasb etdi.Ekspedisiyada S I Fingaret[rassom], A P Kusurgasheva[arxeolog] B .A. Livshis I A Repina, N.B Kuzmina va boshqalar ishtirok etdi

B.Y. Staviskiy va arxeolog aspirant Yusuf Yaqubov va Leningrad universiteti arxeologiya studentlari N.I. Burovik, L.N. Medvedskaya xam qatnashdi.

¹³ Дальварзинтепе Кушанский город на юге Узбекистана. Отв. ред Решпель Л.И. изд.: «Фан», -Т., 1978. –Стр. 2-3.

¹⁴ Пугаченкова Г.А. Халчаян // К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Отв.ред. Ремпель Л.И. Изд.: «Фан». –Т., 1966. –Стр. 9-10.

1965-1969 yillardagi ishlarning eng muhim qazilma ishlari 1961-1964-yillarda olib borilgan, yan'ni, ikkita kompleksni o'z ichiga qamrab olgan edi. A va B komplekslarni. 1969-yilda esa "g'or-2" deb atalmish joyni o'zida mujassamlashtirgan A va B komplekslari (shimoliy-sharq) Qora-Tepaning shimoliy sharqiy qismidagi janubiy tepaligida joylashgan. Birinchi marta bu komplekslar 1937-yilda topilib kash qilingan Y.G. Pebelinoy bu yerda o'zining qazilma ishlarini olib borgan va u 2 ta g'orga yo'l olib boruvchi katta bo'lmagan yer osti masjidini topgan.

1961-1964-yillardagi-ekspeditsiya ishlarimiz shuni ko'rsatadiki yer osti masjidi A kompleksi tomon yo'li mavjudligini bildik. (uning qisqartma nomi PI) ikkinchi g'ordagi masjid esa (PII) – kompleks B. Yana shu aniq bo'ldiki har bir kompleksda hovlilari ya'ni yer maydoni bo'lgan. Shunday qilib, har bir ko'rib chiqilgan kompleks g'orli yer osti joylardan va ular masjid atrofidagi yer maydonlari ichida joylashganligi aniqlandi.

1) Kompleks A

1937 va 1961-1964 yillarda olib borilgan ishlarda yer osti masjidining qay tarzda joylanganligi to'liq aniqlangan edi. Yer maydonidan (janub tomon) shimolga tomon ya'ni yana qisman shimoliy tomon, kirish joylari va g'orli masjid II to'liq qazib olingan edi.

1965-yilgi A kompleksidagi ishlar shu joylarning tashqi qismlarida olib borilgan edi.

Devorning g'ربيy qismi to'liq tozalab olindi va shunday tuyulardiki xuddi shu tomonda kerak joy joylashgandek, va bu joy janubga tomon yo'nalgan va eng tepa qismga olib boradigandek edi. Ammo ishlarimizni tugatganimizdan so'ng shuni aniqladikki kirar joy bu yerda bo'lmagan bu shunchaki devorning bir qismi bo'lgan xolos.

Shunday qilib janubiy joyda yagona chiqish yo'li bo'lgan-zinapoyaga chiqish, pastga yo'nalgan zinapoya edi, A kompleksining shimoliy ayvoniga yo'l.

Tor yo'lakning sharqiy qismi tomon yo'nalgan qazilma ishlari PI masjidida shu maqsadda olib borildiki joining, masjidning markaziy qismini topish

maqsadida qazilma ishlari olib boorish natijasida shu aniqlandiki 1966 yilda ta'kidlangan barcha so'zlar o'z aksini topdi. Markaziy joyga kirish yo'li topildi. U sharqiy yo'lakning janubiy devorining shimoliy tomonidan 6,1 m da joylashgan ekan, Sharqiy yo'lakdagi qazilma ishlariga kelsak, bu ishlar 1966-1968 yillarda olib borilib faqatgina bu joining shimoliy qismigina aniqlandi.

Sharqiy yo'lak qazilma ishlari vaqtida Qoratepada qumlar bilan to'la edi. Qazilma ishlari olib borishgan joylarda ba'zi bir g'ishtlar kvadrat shaklda edi. Tomonlarining uzunligi 33-35 sm qalinligi 12 sm bo'lgan. Ammo g'ishtlarning turlari va kattaligini yetarlicha aniq aniqlab bo'lmadi. Suyakli qoldiqlarning kerak 1969 yilda bir tomondan antropolog tadqiqotlar o'tkazish uchun ikkita alohida alohida joylashgan bosh suyaklari olingan edi. Qolgan suyaklar esa paxtaga o'ralib, ya'ni paxta bilan yopilib, qim bilan sepilgan edi. Yana spool idishlari ham topilgan edi.

1965-yilga kelib g'or maqdarasining shimoliy yo'lagi polgacha tozalangan edi. 1965 yilda yana bu yo'lak to'liq tozalangan edi – chiqish tomonidan boshlab to janubiy devorgacha. Polgacha yana janubiy o'tish yo'lagining shimoliy qismi ham tozalangan edi. 1965-1968 yillarda olib borilgan qazilma ishlarda esa g'arb va sharq tomonlaridagi o'tub yo'laklari faqatgina tozalashlar va nusxalarning chizilishi va yana yozuvlar, bu yozuvlar bundan oldin olib borilgan ishlarda ham aniqlangan edi. Ammo o'sha payt oxirigacha aniqlanmagan bozir esa ishni tugatilganligi ya'ni to'liq aniqlanganligi ma'lum. Bu yo'laklarning tozalash ishlari 1969-yilgacha davom etgan edi. Sharqiy yo'lak bu qazilma ishlar natijasida polnig ustigacha to'liq tozlangan edi.

G'arbiy yo'lakning o'tish qismida yo'lakning sharqiy qismida tozalash ishlari olib borildi. Bu yo'lak P-II maqbarasiga tomon yo'l deb hisoblanar edi. Qazilma ishlari yanada chuqurroq olib borilayotgan paytda shu narsa aniqlandiki, P-I maqbarasidagi kabi bu yerda ham insonlarning suyak qoldiqlari topildi.

Suyak qoldiqlaridan biri taxminan sharqiy o'tish yo'lagining shimoliy-g'arbiy burchagidan 1 m narida tozalab olingan edi. Afsuski, bu suyak qoldiqlari juda ham yomon saqlanib qolingan ekanligi aniqlandi. Lekin shuni aniqladikki

suyak qoldiqlaridan bosh suyagi g'arbiy-sharqiy tomonga qarab turgan edi, oyoqlari esa shimoliy-sharqqa qarab turgan edi. Suyak qoldiqlaridan sharqroqda misli bilak uzug ham u matoga o'ralgan edi.

Ikkinchi topilgan inson suyaklari esa to'liqligicha saqlanib qolgan edi. U g'arbiy yo'lakda topilgan edi. 1966-1969-yillarda olib borilgan qzilma ishlarida kompleks hovlisida tozalash ishlarining olib borilishi yanada kengaytirildi. B kompleksining hovlisini taxlash ishlari natijasida shimoliy va janubiy ayvonlarning bir qismi tozalandi, va yana g'arbiy ayvonning bir qismi bilan hovlining markazi ham tozalangan edi.

Janubiy ayvonning devorlarida, ikkita kirish joylarining markazida kompleksning g'orli maqbarasi qazib olingan edi. U yerda yana katta kirish joyida geometric shakllar devorda chiqilgan edi. Bu joy so'zsiz katta budda haykali uchun mo'ljallangan edi. Ammo bu haykal bizning davrimizgacha saqlanib qolmadi:

B kompleksining markaziy hovlisi 1967-1968-yillarda olib borilgan qazilma ishlarida aniqlandi. Markaziy hovlining shimoliy-sharqiy burchagida olib borilgan qazilma ishlari natijasida tozalangan, zina-poya topilgani aniqlandi. Bu zinapoya shimoliy ayvonga yo'naltirilgan edi. Bu zinapoya ikkita spool piyalaridan iborat edi va ularning ustida to'g'ri to'rtburchakli g'ishtlar qo'yilgan va har bir zinapiyada bittadan g'isht qo'yilgan edi. Ularning davomi esa uchunchi g'isht xuddu shu kattalikdagi va u shimoliy ayvonda qo'yilgan edi. Ularning usti ko'ppala qum bilan qoplangan edi:

Bu qumlardan tepparoqda esa (taxminan 35-50 sm tepparoqda, markaziy hovlining polidan) deyarli barcha joyda qazilma ishlar olib borilgan joyda "beton" ning bo'laklari, yuzlab parchalardan iborat shu qatorda kesilgan narsalardan qolgan yuzlab parchalardan iborat bo'lgan.

Shu narsalar ustidan, bu toplanib qolgan ish qoldiqlari (haykallardan qolgan bo'lishi ham mumkin) hovlida dernagacha bo'lgan masofada ko'ppalab qum to'plami bilan qoplangan edi.

1969-yilda olib borilgan qazilma ishlari natijasida yana qo'shimcha "G'or 2" ni yanada chuqurroq va aniqroq o'rganildi. Bu joy 20-30-yillarda A.S. Strelkov,

B.B. Piotrovskiy, V.N. Kesayev va G.V. Parfenovlar tomonidan, o'rganib chiqilgan edi. Bu kuzatuv ishlarini deb brogan kishilar bu yerda uchta g'orli yo'lak borligini aniqlashgan edi. (sharqiy, shimoliy va janubiy) Ular P harfi kabi joylashgan edi. Bu g'orli guruhning markazida markaziy qisqartirilgan maqbara joylashgan edi.

1969-yilda olib borilgan ishlar natijasida bu yerda to'rtinchi yo'lak borligi g'arbiy yo'lak torligi aniqlandi. Bir tomonimizdan to'liq qazib olingan janubdan sharqqacha uning shimoliy devoridan joyning markazigacha yo'nalgan edi.

Na g'arbda, na boshqa qolgan yo'laklarda "G'or-2"da hech qanday kirish yo'li aniqlanmadi. Bu yo'l markaziy qismga olib borishi lozim edi. Shunday qilib, markaziy qism muqaddas joy (hech bo'lmaganda yo'laklar bilan bog'liq bo'lgan joy) mavjud emas ekan, o'zining tuzilishi jihatidan bu g'orli kompleks A va B komplekslariga nisbatan ancha yaxshiroq ekanligi aniqlandi.

Qoraqtepada 1965-1968 yillardagi ishlar devordagi yozuvlardan namunalar va alohida kashfiyotlar, ilmiy munosabatlarda qiziqarli bo'lgan, san'at haykallari va boshqa narsalar, aniqlandi. Muhimi shuki, bu kashfiyotlar qazilma joylardagi ma'lumotlardan olingan.

Qora tepadagi devoriy yozuvlar birinchi marta, G.V. Parfenov tomonidan kuzatish ishlari 1934-1936 yillarda olib borilib bu ishlar g'orli joylarda, g'arbiy tepalikning g'arbiy qismida (1,2-3 deb atalmish g'orlar) shu joylarning devorlarida bu odam tomonidan chizmalarning bir qismi topilgan edi. "qizil va malla rangga bo'yalgan", "G'or 2" da esa ham topilgan bo'lib keyinroq yana 1937-yilda Y.G. Pechelina tomonidan ham yozuvli bo'yoqlarning qoldiqlari aniqlangan, g'orli devorlardagi qoldiqlar (shimoliy yo'lak, A kompleksda), A kompleksining g'arbiy ayvonida, kirish joyida – yozuvlarning qoldiqlari u yerda yana tik turgan odam rasmi ham aks ettirilgan bo'lgan.

Devorlardagi qizil-gora yozuvlar, 1965-1968-yillarda kashf qilinganlar jovlining janubiy ayvonlarida B kompleksida, shunga qarab aytish mumkinki A kompleksining shimoliy, janubiy, g'arbiy ayvon devorlarida ham yozuvlar bo'lib,

ular oddiy yozuv turini aks ettirgan, ya'ni markaziy joy, yozuvlari A kompleksining samoviy, maqbarasi haqidagi yozuvlar bo'lishi ham mumkin.

Shuning uchun bu yerda biz spool idishlarida chizilgan ba'zi bir sur'at ya'ni rasmlarga to'xtalib o'tamiz xolos o'ziga e'tiborni xarakterli tuvaklar va va ularda bo'lgan vertical holda turgan tuvak qo'lchalari qizil rangdagi vertical yo'nalgan chiziqlar tortar edi. Shunga o'xshash tuvaklar yana bundan oldin 1937-yilda Y.G. Pchelina tomonidan A kompleksidagi P-I g'oridagi maqbarasida topilgan edi. Shunga o'xshash narsalar B kompleksidagi P-II g'orli maqbarasida ham topilgandan so'ng, shunday xulosa qilish mumkinki Qora-tepada yashovchi maqbara domlalarining narsalaridan muhim bir qismidan biri deb hisoblasak ham bo'ladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, bundan oldin ham aniqlangan Qora-tepadagi spool idishlar jumladan, qoppoqlar, ular gullar bilan bezalgan edi. Yana shunday to'rtta qopqoqlar 1965-yilda ham topilgan edi. Hamma Qoratepada topilgan qopqoqlar aslida rejasida aylana shaklida bo'lgan.

Qattiq buzilgan va qizil sur'atlarning rasmlaridan qolgan qoldiqli shunday idishlar A kompleksining hovlisida qumlarning ostidan topilgan edi. U qalinm pasti tekki va uzun qo'l ushlagichdan iborat edi, ko'pbargli gul kabi bo'yalgan ya'ni bezalgan edi. Qopqoqning diametrini aniqlab bo'lmas edi, uning saqlanib qolgan qismining balandligi – 6,5 sm. Uchta qolgan qopqoqlar esa B kompleksining domlo maqbarasining plida topilgan edi. Ulardan birining diametric 12 sm, uzunligi esa (qopqoqning qo'l ushlagichini bisobga olgan holda) 5,5 sm, past qismi silliq ustki qismida gulning naqshi chizilgan u oddiy qo'l ushlagichning atrofini bezab turgan edi. Har bir gulning ichki qismi uning atrofini bezatib chiqqan edi.

Shu yerdan topilgan ikkinchi qopqoq bizgacha bundan ham yomonroq holda yetib keldi: taxminan uning ushlagichining to'rttdan bir qismi parchalangan, Bundan oldingilari kabi buning ham ostki qismi silliq edi, ustki qismi esa chizilgan gullar bilan bezalgan edi. Bu yerda gullar faqat bir qatordan iborat edi. Gul yaproqlari taxminan 9 ta edi.

Oxirgi uchinchi qopqoq B kompleksidagi g'orda topilgan bo'lib, u bizgacha faqat singan holda yetib keldi. Yana uni tiklash uchun ba'zi bir qismi yetishmas edi. Saqlanib qolgan qoldiqlardan shu aniqlandiki uning diametric 19 sm, yetib kelgan qoldiqlarning qalinligi esa 18 sm ga teng, edi. To'q-qizil bo'yoqlari faqat ba'zi bir joylaridagina saqlanib qolgan edi. Shakilga ko'ra esa u bundan oldingilari kabi, shaklda edi: ost qismi, silliq, tepa qismida esa ustun shaklidagi qo'l ushlagichi ham mavjud, uning atrofida gulli naqshlar GUllar bir qator bo'lib joylashgan (gul yaproqlarining soni taxminan sakkizta bo'lgan).

Hammasini olganda, bir-biriga so'zsiz o'xshash bo'lgan qopqoqlar 1965 yilda xuddi avvalgi qazilma ishlar olib borilgan davrdagidek bir-birini hech ham takrorlamas edi. Bularning hammasi esa shuni ifodalaydiki, bu narsalarning hammasi har xil bo'lgan, aniqrog'i esa bu turdagi narsalarning takrorlanmas, o'ziga xos go'zalligi har bir qopqoqning o'zining idishiga mos qilib ma'lumki biron boshqa narsaga qarab qilinmagan, shunchaki shakli jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan xolos.

1965-1968-yillarda olib borilgan qazilma ishlari Qora tepaning rasmlari idishlari qatorini yanada boyitish imkonini yaratib berdi. Avval eslatib o'tganimizdek B kompleksidagi topilgan narsalarda rasmlar, chizmalar topilgan edi.

Maymun ko'rinishidagi haykalchalardan iborat qo'l ushlagichlar u yerda maymun o'zining boshini yonga burib turgan bo'lib, shu narsaning o'zi ham insonning e'tiborini o'ziga tortadi. Buning yasalişini milloddan avvalgi 1-asrda O'rta Osiyoning shimoliy qismida juda ham tarqalgan mashhur bo'lgan bu san'atga bog'lash mumkin; ya'ni o'sha paytlarda ham xuddi shu kabi qo'l ushlagichlar yasalgan. 1965-yilda olib borilgan ishlar natijasida shunga o'xshash narsalar topilgan edi. Bu haykalchalardan biri bukri molning shaklida bo'lib uning uzunligi 8 sm bo'lib B kompleksining markaziy hovlisida qumlarning ichidan topilgan edi. Ammo haykalchaning fe'li tushunarli uning yaxshi saqlanib qolgan belidan bilish mumkin.

1965-1968-yillarda olib borilgan ishlar natijasida har xil tildagi yozuvlarni aniqlashga erishdik. Xuddi bundan oldingidek bu yozuvlar qora bo'yoqlar bilan yozilgan bo'lib, Buddiyaviy komplekslarning Qora-tepada rivojlanish davridan qolgan bo'lib, ular spool idishlarda ham mavjud edi.

Sopol idishlaridagi yozuvlar 1965-1968-yillarda topilgan bo'lib uni ham T.V. Grek aniqlagan edi.

Qidiruv natijalari unchalik ham to'liq bo'lmay, shularga o'xshash hindiy yozuvlar F.V. Grek tomonidan nashr qilinib shunchaki taxminiy tushuntirishlardan iborat.

1968-yildaning baxorida chopon Absad Bekjonov Eski Termiz shaxri xarobalarining yonidan budda sanaminini topib oldi Topilmalar toplamini Termiz o'lkashunoslik muzeyiga topshirdi Shundan so'ng Fayostepa yodgorligini o'rganishga kirishildi va birinchi bo'lib arxologik olim L.I.al'baum tamonidan 1968-1976-yillarda topilma topilgan xudud o'rganilgan bu yerdan stupalar topilgan L.I. albaumning takidlashicha bu stupalar milodan avvalgi 1-asirning oxirlarida qurilgan bo'lib „gumbaz qismi rang tasvirlarga bo'yalgan“¹⁵

Stupaning qarama-qarshisida ibodatxona joylashgan. Ibodatxonaga kiraverishda markaziy xovlnning janubiy ayvonida loy va ganchdan yasalgan Buddha va bodisatvalarning haykallari turgan. Ularning ko'p-chiligi kizil va ustndap tilla suvi bilan bezatilgan. Ayvonning devorida esa turli mazmundagi rasmlar joylashgan. Ibodatxona devorlari xam rasmlar bilan bezatilgan. Xususan, uning janubiy devorida kizil ko'ylak kiygan Buddaning rayemi chizilgan.

Uning ikki tomonida yana ikki kishining rasmp bor. Ulardan biri buddaga sajda qilmoqda. Bulardan tash-qari, bu xonada boshqa kishilarning katta mahorat bilan chizilgan rasmlari xam topilgan. Rayemda tasvpr-lanayotgan odamlarga kandaydnr hayotiylik baxsh eta olganlar. Mazkur xonadan topilgan ok marmartoshdan va alebastrdai yasalgan haykallar ham diqqatnp jalb etadn. Ularning ko'pchiligi bo'yoq va tilla suvi bilan qoplangan. Haykallar orasida

¹⁵ Аннаев Т.Ж. Кухна Термизнинг буддавийлик е'дгорликлари./Термиз тарихий тадқиқотлар илмий хулосалар.Ташкент -2001й.51-бет.

alebastrodai tayyorlan-gan Buddaning haykali alohida o'rin tutadi. Haykal o'zining nihoyatda bejirimligi va yuqori zstetik did bilan tayyorlanganligi uchun odamlarda zo'r qiziqish uyg'otadi. Haykalning yuzi oq, ko'z va sochlari qora rang bilan bo'yalgap

1972 yili bu yerda oq marmartoshdan yasalgan hay-kallar gruppasi topildn. Unda Buddha va ikki ruhoniy aks ettirilgan Buddha muqaddas daraxt Tagila o'tirgan, rux;oniylar esa uning ikki tomonida turgan holda tasvirlangan. Bu haykallar gruppasp shun-chalik nafis va go'zal ishlanganki, uni so'z bilan ta'-riflab bo'lmaydi. Bunday ishlangan Buddha haykali hatto buddizm vatani hisoblangan Hindistonda ham ma'lum emas.¹⁶

Oxirgi yillarda Kushonlar davriga oid bo'lgan Surxondaryodag ko'plab yodgorliklar aniqlanib, o'rganib chiqildi.Ayniqsa Dalvarzintepadan 1972-yilda topilgan 36-kg keladigan oltin buyumlar diqqatga sazovardur¹⁷.

Rtveladze, Hakimovlar 1973-1974 yillar 110 ga yaqin punktlarni topishdi. 1972 yil M.Ye.Masson boshchiligidagi ekspedisiya Shimoliy Baqtriyadagi yodgorliklarni batafsil o'rganib chiqdilar. 1973 yil Zartepada arxeologik qidiruv ishlari boshlandi. 1974 yil shetenko, Sobirov va Pilipkolar ayrim binolarni qayta tiklab, o'rgandilar. 1973 yil Zartepadagi qidiruv ishlari davom ettirildi. V.A.Kozlovskiy boshchiligidagi ekspedisiya Oqqo'rg'on, Sherobod hududlaridagi manzilgohlarni o'rganib chiqdilar.

1974 yil Baqtriya ekspedisiyasi Zartepa shahar o'rnida Mirzaqultepa qishlog'ida o'z izlanishlarini olib bordi.¹⁸

1965 yilning bahorida Afrosiyobda olib borilgan qazishma ishlari yuqori natija berganidek, Surxondaryo viloyatidagi antik davr yodgorliklarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Surxondaryo vohasi O'zbekiston janubida joylashgan geografik viloyat bo'lib, katta hududlarni egallaydi. Qadimgi Baqtriya, Toxaristondagi mavjud bo'lgan madaniy markazlarning ko'pchiligi Surxon

¹⁶ Пидает.Ш.Р Кадимий Термизю2001й 16-17 бет .

¹⁷ Тургунов Б.Далварзинтепа кушонлар салтанатининг пойтахти.Мозийдан садо.2001-йил.№1-2,12,бет.

¹⁸ Пидает Ш.Р.Мирзакул-тепа-памятник раннекушанского времени в Северной Бактии //Бактрийские древности Л.,1976 стр.173

vohasiga to'g'ri keladi. Viloyatda 500ga yaqin arxeologik yodgorliklar aniqlandi. Ular Sopollitepa, Jarqo'ton (bronza), Bandixon, Qiziltepa va Kuchuktepa (ilk temir asri), Ayritom, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Zartepa, Qoratepa, Fayoztepa, Xolchayon (Kushonlar davri) kabilardir. Surxondaryo viloyatida M.Ye.Masson, G.A.Pugachenkova, A.A.Asqarov, L.I.Albaum, B.L.Stoviskiy, A.Sagdullayev, T.Shirinov, Sh.R.Pidayev, E.V.Rtveladze, B.A.Turgunovlar doimiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Surxondaryo viloyatidagi antik davr tarixiy yodgorliklariga oid o'nlab monografiyalar chiqarilgan. Ammo barcha tarixiy-madaniy muammolar o'rganilgan emas. Dalvarzintepadagi sopol buyumlar haqida A.A.Voskovskiy ko'pgina ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Qazish ishlari o'rganish bosqichlari haqida ham ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tgan. K.A.Abdullayeva va T.D.Annayevalar esa Rabot qabristoni xususida aniqliklar kiritib o'tishgan. Rabot makoni Boysun tumanining markazida joylashgan. I.T.Botirova, K.A.Sheyko arxeologik predmetlarga batafsil tavsif berib o'tgan. S.V.Levushkina ham o'z maqolasida 54 ta buyum haqida qo'shimchalar keltirib o'tgan. 2000 yil Kampirtepada arxeologik dala qazish ishlari davom ettirildi. Mart oyidan dekabr oyiga qadar Kampirtepaning barcha punktlari o'rganib chiqildi. Bir qancha obyektlar ro'yxatga olindi. A.V.Vaskovskiy mikro stratigrafik usuldan foydalandi. Xonalarni qazish uchun shunday usul tanlangan. Shahar o'rnini uchta asosiy obyekt mavjud bo'lib, №10 blok kvartalda S.Balelov, shahar xarobasining shimoliy-sharqiy qismida L.Sverikov, B-blok kvartalni esa K.Sheyko va G.Nikitenkolar tadqiqot ishlarini olib borishdi. 2-3 minora va xona devorlari ham L.Sverikov tomonidan tahlil qilib chiqilgan. 2-kvartalning har bir qismidagi xonalarni O.Uspova o'rganib chiqqan.

1980 yillar Qoratepada olib borilgan ekspedisiyada ko'plab materiallar qo'lga kiritildi. Qoratepa haqida boshqa maxsus to'plamlar chiqarildi, yuzga yaqin ilmiy maqolalar dunyoning ko'plab mamlakatlarida nashr ettirilgan. O'zbekiston janubidagi Kushonlar davri uchun xos bo'lgan yirik manzilgoh bo'lib hisoblanadi. Qoratepa – O'rta Osiyodagi yirik budda markazi ekanligi ham o'z isbotini topib bordi. Qadimda O'rta Osiyo – hind diniy aloqalari bo'lganligidan ham guvohlik

beradi. 1961-1980 yillar Qoratepadagi qazuv ishlarida turli xil ma'lumotlar qo'lga kiritilib, unda ko'plab tadqiqotchilar ishirok etishdi. Unda quyidagi arxeologlar: L.K.Sergeyeva, A.F.Berdnikov, V.L.Iapushnev, N.S.Sыcheva, V.N.Mazurina; sharqshunoslar: G.V.Grek, V.K.Lukonin, V.L.Sыchev, V.V.Vortogradova, V.A.Livщis, S.B.Pevzner; san'atshunoslar: V.A.Meshkoris, O.N.Shegolev; kimyogarlar: E.N.Ageyeva, V.Ya.Birmten, Z.M.Jelninskaya, L.V.Kuznesova, L.G.Redotova Qoratepa materiallarini tikshlashda rassomlar: R.M.Sыtina, N.D.Dorofeyev, Yu.A.Ruzovin, I.Ya.Sokolov, S.Filoatovlar edi.¹⁹

O'zFA San'atshunoslik instituti qoshidagi ekspedisiya a'zolari turli vaqtlarda qidiruv tadqiqot izlanishlarini olib borishdi. 1960 yil kuzida Sh.Toshxo'jayev, 1961 yil B.Turg'unov, 1961-1962 yillarda D.Sidorova, D.G.Zilper, 1960 yil Toshkent davlat universiteti talabalari Z.Alimov, V.Goryacheva, M.Safarov, K.Yusvatevlar o'tkazgan amaliy tadqiqot ishlari jarayonida ham ko'plab materiallar qo'lga kiritildi. Dalvarzintepa bilan bir vaqtda Xolchayonda ham dala tadqiqot ishlari davom ettirilgan. Denov va Xolchayon atroflaridagi madaniy qatlamlar ro'yxatga olindi. 1960 yil kuzida L.I.Rempel boshchiligidagi ekspedisiya Boysun rayonidagi Vaxshuvar, Sina hududlaridagi ekspedisiyalarini davom ettirdilar. 1960-1963 yillar san'atshunoslik ekspediyasi a'zolari V.G.Dolinskaya, X.Xusnutdinxo'jayev, D.Ro'ziboyevlar Xolchayon va boshqa tarixiy yodgorliklarni o'rgandilar.²⁰

Shahar oldi zonada S.Balelov kulolchilik pechini ochdi, o'rgandi. Kulol hunarmandlarning ustaxonasi shahar devorlaridan 110 metr sharqiy masofada joylashgan. Tadqiqotni E.Rtveladze esa miloddan avvalgi III asrga oid yunon-baqtriya sopol buyumlari kolleksiyasini aniqladi. №2 qabristoni ham E.Rtveladze tomonidan aniqlangan. S.Dudakov esa shahar oldi hududlarida stratigrafik shurf asosida kuzatuv ishlarini olib bordi. Qabr ko'rinishidagi maydonlar bir nechta bo'lib, ayrimlari tizimli ravishda dafn markazi vazifasini bajarib kelgan.

. Дальварзинтепе Кушанский город на юге Узбекистана. Отв. ред Решпель Л.И. изд.: «Фан», -Т., 1978. –Стр. 2-3.

²⁰ Пугаченкова Г.А. Халчаян // К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Отв.ред. Ремпель Л.И. Изд.: «Фан». –Т., 1966. –Стр. 9-10.

Kapkirtepadan 0,5 km g'arbda joylashgan Shurtepada ham tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Bunda arxeolog E.Rtveladze va A.Voskovskiylarning ekspeditsiyalari alohida o'rin egallaydi. Ushbu keng qamrovli qazish ishlari bir qator masalalar yechimini topishda asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Amudaryo orqali Baqtriyadan So'g'dga boradigan karvon yo'li aholi punktlari qayta tiklanib o'rganildi.

«Toxariston ekspeditsiyasi materiallari»ning ikkinchi nashri 2000 yildagi tadqiqotlarga bag'ishlangan. 10-blok kvartal turar joylari ham tadqiqot obyektlariga kiritilgan. Yopiq holda bo'lgan barcha obyektlar ochilib, ro'yxatga kiritildi. Shuni qayd etish mumkinki, ushbu tadqiqot natijasida ko'plab qiziqarli materiallar qo'lga kiritildi. Kushon hukmdorlaridan biri hisoblangan Kanishka davriga oid bo'lgan sopol buyumlar kompleksi qo'lga kiritildi. Ushbu hukmdor davrida zarb qilingan tangalar ham olingan.²¹

2000 yilgi tadqiqot jarayonida Kampirtepaning barcha shahar qismi ochib, tadqiqot olib borildi. Shahar xarobalarining sharqdan g'arbga qarab yo'naltirilgan tadqiqot maydoni 70 m ni tashkil qilgan. Topografik tadqiqot ishlarini E.Rtveladze, D.Rusakov, I.Azimov, V.Luneva, D.Jahontlov, A.Shepelin, N.Utarbokovlar olib borishgan. Kampirtepani topografik o'rganib chiqish ishlari ham tizimli ravishda olib borildi. Sho'rtepa Kaptartepadan 0,5 km g'arbda joylashgan bo'lib, ba'zi qismlarining balandligi 10 m ni tashkil qiladi. shahar o'rni ikki qismdan iborat bo'lib, shimoliy-sharqiy turar joylar, qal'alar asosiy obyekt bo'lib hisoblanadi. Shahar o'rnining janubiy-g'arbdan shimoliy-sharqqa tomon umumiy hududi 300 m, kengligi 130-150 m.

1-qismi (230-130-150 m) janubiy-g'arbda Amudaryo bilan chegaralangan. Ayrim qismlari yaxshi saqlanib qolgan. Unchalik katta bo'lmagan uchburchak maydon 35x15 m ekanligi ma'lum bo'ldi. Madaniy qatlamlarning chuqurligi 2-3 metrni tashkil qiladi 1968-yilda E.V.Rtveladze tadqiqot ishlarini davom ettirgan 1974-yilda A.Sagdullayev tamonidan yodgorlikning shimoliy janubiydagi ark qismida

²¹ Материалы Тохаристанской экспедиции. Выпуск 2. Археологические исследования Кампыртепи. Под ред. Ртвеладзе Э. –Т., 2001. –Стр. 3-4.

uncha katta bo'lmagan arxologik tadqiqotni olib bordi . 1984- yilda arxeolog B Turg'unov tamonidan Dalvarzintepadan ko'plab tangalar topilgan.

1989-yilshaxristonni o'rganishda yangi bosqich bo'ldi –O'zbekiston san'atshunoslik ekspedisiyasi bilan Yaponiyaning To'kiyodagi So'ka universiteti professor Kyudzo Kato raxbarligidagi ekspedisiyasi xamkorlida tadqiqot ishlarini boshlab yubordi

Hamkorlikdagi ishlarning tarixi quyudagicha : 1988-yili Yaponiyaning qadimiy poytaxtida tashkil etilgan “Buyuk ipak yo'li Naraga olib boradi “ nomli Xalqaro ko'rgazmada sobiq Savet Ittifoqi kolleksiyasi orasida Dalvarzintepa budda ibodadxonasidan topilgan uchta xaykalcha –Buddaning boshi ,Bodxisatva xaykali va buddaning qo'lining qismi namoyish etilgan . Bu ekspanatlar professor Kyudzo Katoni qiziqtirib qoldi va shu yilidayoq Soka universitetinig tarix kafedrasiga O'rto Osiyo madaniyatining tarixi bo'yica o'qituvchilikka taklif etildi .Bu erda olim Xamza nomidagi San'atshunoslik inistituti bilan Soka universiteti o'rtasida O'rta Osiyo antik davri va o'rta asirlardagi madaniyati tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy xamkorlik rejani taklif etdi .Soka universiteti raxbariyati bu loyixani sinchiklab ko'rib chiqib ,Soka universitetining asoschisi, yangi “ma'naviy ipak yo'li”ni ochish kerakligini mudom takidlab o'tgan Daysaku Ikedaning g'oyalariga mos keldi ,deb topdi. Soka universitetining raxbariyati roziligi bilan Kyudzo Kato mazkur ekspanatlarni Naraga kuzatib brogan o'zbek qadimshunosi B. Turg'unovga Dalvarzintepagi budda ibodadxonasida qadimshunoslik tadqiqotlarni xamkorlikda olib boorish to'g'risida ikki tamonloma ilmiy shartnoma tuzishni taklif etdi.

1989-yilning 4-yanvarida Toshkent shaxrida Hamza nomidagi Sa'natshunoslik institutibilan Soka universiteti o'rtasida olti yillik (1989-1994 yillar)shartnoma tuzulidi .Hamza nomidagi Sa'natshunoslik olimlaribilan Soka universiteti rektori janob Kyudzo Takamosu imzolagan shartnomada Buyuk ipak yo'liga doir tarix va madaniyat o'rganishda Yapo'nya bilan O'zbekiston olimlari o'rtasida do'slik aloqalari o'rnatilgani aloxida takidlanib o'tildi .

Shunday qilib ,O'rta Osiyo qadimshunoslari amaliyotida birinchi marta Dalvarzintepa qazishmalarida O'rta Osiyoning qadimgi madaniyatini o'rganish

yuzasidan xamkorlikdagi ishlar uchun shart- sharoitlar yaratildi. Bu xamkorlik ikkala tamonga xam katta foyda keltirishi umuman kelajakda shunday ishlarini rivojlanib ketishigaturtki bo'lib xizmat qildi. 80 yillarning oxirlariga kelib yapon olimlaridan keyin O'zbekiston diyoriga italiyan, fransuz ,nemis qadimshunos olimlari kela boshladi.

Shunday qilib ,1989-yil boshlab toq yillar yapon olimlari uch marotoba Dalvarzintepaga kelishdi , juft yillar esa o'zbek olimlari Yoponiyaga.

1963-1964 yillar Davlat ermitaji va Sharq xalqlari tarixi Davlat muzeyi ko'hna Termizda arxeologik qidiruv ishlarini olib bordi. O'zFA Arxeologiya va Tarix instituti bilan kelishgan holda olib borilgan. Bizning mamlakatimizda budda monastri hisoblangan Qoratepa o'rnida qidiruv ishlari davom ettirildi. Qoratepa ko'hna Termizning shimoliy-g'arbiy burchagida joylashgan bo'lib (1-rasm), mil. avv. III-II asrlarga oid hisoblanadi. Kushonlar imperiyasi gullab yashnagan davrda asosiy qismlari yuzaga kelgan. 1963 yilgi ekspedisiyaga Davlat ermitajining a'zosi B.Ya.Staviskiy boshchilik qilgan. Rassom S.I.Dingaret, tiklovchi R.M.Сырпина, Sharq xalqlari san'ati muzeyi xodimi A.P.Kusurganeva (arxeolog), V.A.Livшis (eronshunos), N.B.Kuzminalar ishtirok etgan. 1964 yilgi ishlarda yanaB.Ya.Staviskiy, S.I.Dingaret, V.A.Livшis, O.D.Volkova, N.N.Gaaze, G.G.Altshullerlar ishtirok etishganlar.

1937, 1961, 1962 yillar davomida Qoratepa shahar xarobasida arxeologik qidiruv ishlari olib borilgan. Demak, 1963-1964 yillardagi ishlar kompleks tadqiqot bo'lib hisoblangan. A-kompleksi ushbu ekspedisiya va dala tadqiqoti natijasida o'rganib chiqildi. Qoratepaning g'arbiy qism hovlilari 1962 yilgi kuzgi dala ekspedisiyasida aniqlangan edi. G'arbiy devor, hovli, sharqiy devor qazib o'rganildi. Xonalarning deyarli barchasi A-kompleksi bilan bog'liq holda aniqlangan. 1963-1964 yillardagi qazish ishlari stratigrafik kuzatuvga asoslangan. 1963-194 yillardgi qazish ishlari natijasida ko'plab arxeologik materiallar qo'lga kiritildi.²² Qoratepadagi ashyoviy buyumlarga bag'ishlangan. Z.B.Altmann

²² Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. Под общ.ред. Ставиского Б.Я. –М., Изд. Вост. Лит., 1969. –Стр. 7-8.

maqolasi ham 1970-1971 yillardagi tadqiqot natijalari bilan bog'liq bo'lgan. Ye.V.Zeymal, V.G.Lukoninlar Qoratepadan olingan tangalar xususida o'z maqolalarini e'lon qilishgan.

Qoratepa haqidagi epigrafik materiallarni X.Xunbax o'z maqolasida yoritgan. Tosh relyeflar, devoriy yozuvlarning Qoratepadagi holatini G.I.Berlin, Z.M.Jelinskiy o'z maqolasida aks ettirgan. Qoratepa yodgorligini o'rganishda sharqshunos arxeologlarning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Antik madaniyat, antik san'at, antik arxeologiya tushunchalari yaqin vaqtgacha bir qadar noma'lum bo'lib kelgan. Zamonaviy fan esa qadimgi xalqlarning madaniyatini o'rganish masalasiga yangicha munosabatda yondashgan. Deyarli O'rta Yer dengizining barcha hududlarida antik demokratiya, antik madaniyatgasan'at rivojlangan. Yaqin O'rta Sharq ham shular qatoriga kiradi. Sobiq sovet arxeologlari antik davr O'rta Osiyo tarixi bilan bog'liq hudud, manzilgohlarni ocha boshladilar. S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm etnografik-arxeologik ekspeditsiyasi, M.Ye.Masson boshchiligidagi Janubiy Turkmaniston kompleks arxeologik ekspeditsiyasi eramizgacha va eramizning birinchi asriga oid ko'plab noma'lum bo'lgan yodgorlik, shahar xarobalarini aniqladilar. Ular inshootlar, saroylar va Niso, Tuproqqal'a, Marv va Berkutqalin vohasidagi qal'a shaharlar edi. Tuproqqal'a haykaltaroshligi, rassomchilik – tasviriy san'ati, Niko, Marv va Xorazm territoriyalari ham shular qatoridagi muhim obyekt bo'lib hisoblanadi. Tadqiqot materiallari asosan O'rta Osiyo – Xorazm, Parfiya, Baqtriya, So'g'd, Farg'ona – Turkiston tarixiy-madaniy maktabi tomonidan aniqlangan. Baqtriyaning tarixiy-badiiy madaniyati masalasi muhim bo'lgan. 1960 yil Moskvadagi sharqshunoslarning XXII xalqaro kongressia ham bu alohida ko'rib chiqilgan. Sak-Kushon muammosi, Hind-O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy aloqalari masalalariga ham kongressda alohida e'tibor qaratilgan.

Baqtriya katta hududning markazi bo'lib hisoblangan. Kushon imperiyasining tashkil topishi, harbiy-siyosiy voqyealar, etnik siljishlar, iqtisodiy va madaniy aloqalar shular jumlasidandir. Antik sivilizasiya madaniyat bilan bog'liq.

Kushonlar davri davri madaniyatini o'rganish maqsadida turli mamlakatlar bilan xamkorlikdagi ekspedisiya tashkil etilgan Xususan 1994-yildan buyon P.Lerishva Sh Pidayev raxbarligida o'zbek -fransuz 1999-yildan boshlab K Kato va Sh Pidayev raxbarligidagi o'zbek- yapon ekspedisiyalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda .Ularning xamkorlikdagi tadqiqotlari o'z samarasini berdi .Dalvarzintepa ,Qaratepa, Eski Termiz ,Fayoztepa,Chingiztepada arxologik tadqiqotlarni olib bordi . Qaratepada o'zbek va yapon olimlari xamkorlikda 1998-yilgi tadqiqoti muxum axamiyat kasb etdi Tadqotlar jarayonida ko'plab san'at buyumlariva spool parchalariga bitilgan yozuvlar topilgan.

II Bob. Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa yodgorliklari

Dalvarzintepa tuzilishiga ko'ra O'rta Osiyoda keng tarqalgan antik shaharlar (Zartepa, Kayqubodshoh, Qumqal'a, Xayrobodtepa, Hayitobodtepa) singari barpo qilingan. U har biri hayotni ta'minlashning mustaqil tizimiga ega bo'lgan ikki alohida qismdan iborat. Ularning biri – shaharning janubiy hududida eng baland tepalikka joylashgan qo'rg'on va ikkinchisi – shaharning o'zi.

Qal'a devorlari o'qlari bo'yicha eng yirik o'lchamlari 300 va 330 m bo'lgan noto'g'ri ko'p qirrali shaklda qurilgan. Devorlarning balandligi 15 m, uzunligi 800 m, qiyaligi 30 daraja, qal'a maydoni 6 ga atrofida.

Dalvarzintepaning ikkinchi qismi – shaharning o'zi to'g'ri burchakli shaklda. Devorlarining umumiy uzunligi 2300 m, minoralarining soni 30 dan ziyod, handag'ining eni 10-15 m. handaq kengligi va devorlar qo'shqavat ekanligi tufayli ham shaharni olib bo'lmagan. Mabodo Kampirtepa, Zartepa kabi tuzilishi yaxshi o'rganilgan shaharlarni misolga oladigan bo'lsak, Dalvarzintepa shahri umumiy hududining 34 foizini mudofaa inshootlari, 41 foizini asosiy istiqomat qismi, 7 foizini maydonlar va ko'chalar, 18 foizini boshqa binolar egallagan, deb taxmin qilish mumkin. Shahar qurilishining umumiy maydoni 470000 kv m ga yaqin bo'lgan.²³

Shunday qilib, tadqiqotchilar avval ko'p marta ta'kidlab o'tganlaridek, Dalvarzintepa – Kushon davlatining poytaxtga xos inshootlar o'ta zich qilib qurilgan eng yirik shahridir. Bu yerda ibodatxonalar (DT-7, DT-9, DT-25), shahar aholisining uylari (DT-5, DT-6), ishlab chiqarish ustaxonalari, shahar maydonlari va hovuzlar, suv tarmoqlari tizimi, ko'cha tarmoqlari qazib ochildi.²⁴

Hozirgi vaqtga kelib shahar hududining ko'p bilan 10 foizi ochilgan xolos, biroq Dalvarzintepa aholi turmushini ta'minlash tadbirlari hisobga olingan holda yagona tizim asosida qurilgan, deb xulosa qilaverish mumkin. Har bir mahalla

²³ Русанов Д.В. Далварзинтепа шахристони (кадимшунослик таджикотлар яқунлари). Сока Университети. 1996 й.

²⁴ Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия- Тахаристан. Ташкент -1990г. Стр72-73

ichidagi ko'chalar shahar devorlariga aynan yondosh qilib o'tkazilgani birinchi galda ana shundan dalolat beradi.²⁵

Dalvarzintepa an'anaviy to'g'ri burchakli shaklda qurilgan, deb taxmin qilsa bo'ladi. Shahrison tuzilmasi shuni ko'rsatadiki, ko'chalar bo'ylab maydonlarning keng tarmog'i mavjud edi. Misol uchun shaharning shimoliy o'qi bo'ylab, asosiy ko'chalardan birining shimoliy qismida, mahalla o'rnini deb taxmin qilinayotgan joyda noyob budda majmuasi (DT-25) topildi.

Dalvarzintepa shahrisonining 47 ga, chizmada to'g'ri burchakli shaklda, dunyo tomonlariga qaratib qurilgan, lekin bo'ylama o'qi g'arbga og'gani sezilarli darajada. Og'ish burchagi 25 darajaga yaqin, biroq G.A.Pugachenkovaning taklifiga binoan tavsifni soddalashtirish maqsadida devorlar va inshootlarning yo'nalishi shartli ravishda shimoliy, janubiy, sharqiy va g'arbiy deb belgilanadi.

Dalvarzintepa – Kushon davlati tarkibiga kirgan. Surxon daryosining o'rta va yuqori qismini egallagan ulkan tarixiy geografik hududning yirik shahri markazidir. Bu yerda 30 yildan ziyod vaqt mobaynida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida bir qator savollar tug'ildiki, ularga javobni shahar qurilishining ichki tuzilmasini o'rganish, tuzilishining o'ziga xos asosiy xususiyatlarini aniqlash, shahar madaniyatining din, turmush va ishlab chiqarish singari xilma-xil tomonlarini tavsiflovchi qadimshunoslik materiallari majmuini olish orqali topish mumkin. Keyingi yillarda Dalvarzintepadan budda ibodatxonalariga oid katta majmui olindi. Bu topilmalar bir vaqtlari yirik binoning ichini bezagan devoriy suratlar va haykalchalarning ko'plab parchalaridan iborat. Me'moriy qoldiqlar tavsifiga o'tishdan avval Dalvarzintepadagi shaharsozlikning qiyofasini ta'riflashga ozroq to'xtalib o'tishni istardik.

Dalvarzintepaning asosiy maydoni tadqiqotchilar tomonidan o'rganib chiqilib, shahar xarobasi obyekt sifatida belgilab olindi. Uchta burchak asosiy maydon bo'lib, mikrorelyef ko'rinishlari aks ettirilgan. Janubiy tomon devorlarining o'lchami 150 metr, shimoliy devorlarining o'lchami 200 metr,

²⁵ Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В., Тургунов Б.А. и др. Дальверзинтепа – кушанский город на юге Узбекистана. –Ташкент, 1978, 189-с.

shimoliy qismi 170 metrni tashkil qiladi. Ikkita minoralar aniqlab olindi. Devorlarining balandligi 11 metr, shimoliy qism balandligi esa 14 metr. Markaziy qism 15 metr. Asosiy maydon barcha tomondan o'rab olingan. Shahar xarobalarining tomonlari 20-25 metrni tashkil qiladi. daryo oqimi yaqin bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu oqim Karmanasoy deb nomlangan. «Qadimgi mikrorelyeflarning o'zgarishiga qaramasdan, qurilish shosselari saqlanib qolingan. Shimoldan bolanib, shahar xarobalarining shimoliy-g'arbiy qismi bilan chegaradosh Karmakisoy doimo suv bilan to'ldirilgan. Hozirgi vaqtda shahar maydonining katta qismi qo'rg'on shaklidagi ko'rinishga ega. Arxeologik qazuv shimoliy-g'arbiy qismda olib borilmoqda. Devorlarning qalinligi 5,2 metr, pishiq g'ishtlar 45x45x12-13 sm o'lchamda. Kushonlar davridagi pishiq g'ishtlarning o'lchami 35x35x11-12 sm. Dalvarzintepaning ba'zi madaniy qatlamlari 6 metr chuqurlikka ega. Ba'zi madaniy qatlamlar qalinligi stratigrafik shurf orqali aniqlandi, xonalarning kengligi 2,8 metr, devorlarining qalinligi 50-60 sm. paxsa va loy g'ishtlar ham devorlar qurilishida ishlatilgan.²⁶ Xo'jalik uchun mo'ljallangan chuqurlar mavjud bo'lib, 1x1 metrga ega. Xonalar ichidagi madaniy qatlamlar chuqurligi 70 sm ni tashkil qiladi. Patski qatlamlarda ko'plab sopol buyumlar bo'lib, ayrim bo'lak qism shaklidagi boshqa buyumlar ham uchraydi. Barcha sopollar kulolchilik ustaxonalarida tayyorlangan. Ko'plab idishlar yaxshi saqlanib qolganligi bois, ularni yasash texnikasini o'rganish oson kechadi. Stratigrafik gorizont keyingi marotaba ham shahar maydoniga tashlandi. Sopol idishlar ikkita asosiy topilmalar tarkibini tashkil qiladi. chuqurligi 3,20-4,25 metrdagi madaniy qatlamlardan ham ko'plab arxeologik materiallar topildi. Sopol buyumlar ko'plab kushonlar davriga tegishli yodgorliklarda uchratildi. Ko'plab tadqiqotchilar Dalvarzintepada qazish ishlarini olib borib, materiallarni tahlil qilib o'tishadi. Shahar chetki maydonlaridan topilgan ko'plab madaniy qatlamlarga ham e'tibor qaratilgan. Xonalarning kengligi 2,15 metr ko'rinishga ega. Shaharning ko'plab maydonlarida devorlar paxsadan qurilgan. Pishiq g'ishtlar 40x40x10 sm.

²⁶ Далварзинтепе. Кушанский город на юге Узбекистана. Отв. ред. Ремпель Л.И. Изд.: «Фан». –Т., 1978. – Стр. 12-13.

Qalin devorlarning uzunligi 12,5 metr, kengligi 1-1,5 metr. Devorlarining balandligi 6 metr. Madaniy qatlamlarning o'rganilishi bilan aytish mumkinki, quyi qism devorlari asosan paxsadan qurilgan. Hozirgi vaqtda saqlanib qolgan devorlarning balandligi 2,5 metr. Xonalarning pol qismi ham mavjud. Ularning ham chuqurligi aniqlab olindi. Ko'plab chuqurliklar sopol va boshqa buyum qoldiqlari, qism-bo'laklari bilan to'ldirilgan. To'rt qator ko'rinishdagi devorlarga pishiq g'isht ham ishlatilgan. G'ishtlarning o'lchami 48x47-48x12-13 sm, 45x45x12 sm, 42x43x43-10-12 sm, 36-38x36-38x10-11 sm. Paxsa devorlarining qalinligi 90 sm. Deyarli barcha g'ishtlarning o'rtacha o'lchami 45 sm. Antik davr tarixiy yodgorliklari bilan dalvarzintepa o'rtasida katta farq mavjud emas. Xolchayon kabi shahar o'rni devorlariga o'xshashlik mavjud. Ba'zi inshootlarning davrini aniqlash qiyin kechadi. Miloddan avvalgi I asr va milodiy I asrga oid ekanligi tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etildi. Mudofaa devorlari mavjud bo'lsa-da, ular o'z vazifasini bajarganligi tasdiqlangan emas. Pishiq g'isht va paxsadan qurilgan ko'pchilik xonalar ham shahar asosiy maydoniga kiritiladi. Xonalarning pol qismi 4,2 metr qalinlikka ega. Pishiq g'ishtlarning o'lchami 35x35x10 sm dan 45x45x12 sm gacha ekanligi ma'lum bo'ladi. Devorlarning umumiy ahvoli ham o'rganib chiqildi. Dalvarzintepada ikki qator devorlar bo'lgan. U tosh yo'laklar bilan ajralib turgan. Qadimgi Sharqda bunday qatorli devorlar qurish keng yoyilib borgan. 1962 yil Dalvarzintepaning janubiy-g'arbiy minoralari o'rganib chiqildi. To'g'ri burchak ostida qurilgan xonalarga ishlatilgan pishiq g'ishtlarning o'lchami 52x53x26x5-10-10 sm. Dalvarzintepada doimiy kuzatuv ishlari olib borildi. Doimiy kuzatuv ishlari davom ettirildi. Dalvarzintepa 2 ning qazish ishlari alohida o'rin egallaydi. Devorlarning eni 2,2 metr, g'ishtlarning o'lchami 52x26x10 sm. Madaniy qatlamlar 15-20 sm dan 1,4 metrgacha boradi. Sopol buyumlar qoldiqlari ko'plab topildi. 1,4 metr chuqurlikdagi madaniy qatlamlardan boshqa ashyoviy materiallar ham topildi. Qal'a devorlarini o'rganish katta hudud, asosida olib borildi. D-3, D-8, D-4 qismlarda alohida qidiruv, qazuv ishlari davom ettirildi. Bunda L.I.Albaumning xizmatlari katta bo'lib hisoblanadi. Dalvarzintepadan ko'plab tangalar ham topildi. Ular asosan kumushdan ishlangan. Ularning tangalari

keyingi davr arxeologik yodgorliklaridan ham topilgan. 1968-1972 yillardagi qazish ishlari davomida 22 ta xona aniqlandi. Turar joy vazifasini bajarib kelgan. D-4 qismida bunday xonalar soni ko'p bo'lgan. Xonalarning deyarli barchasi tuproq qatlam tagida qolgan (15-rasm). Barcha tomoni kvadrat shakldagi devorli xonalarni pishiq g'isht ishlatilgan. Xonalar ichida markaziy zallar ham bo'lib, tag qismlarining qalinligi 2-2,7 metrni tashkil qiladi. Barcha xonalar devori suvoq qilingan. Burchak qism suvoqlari yaxshi saqlanib qolgan. Markaziy qism uch guruhga bo'linadi: 1-xona – katta zal ko'rinishida bo'lib (11,5-7,6 metr bo'lib, markaziy kompleks ekanligi ta'kidlanadi), 16-rasmda o'z aksini topgan. Barcha devorlarini pishiq g'isht ishlatilgan. 3-xona – zallari o'lchami 105x3,8 metr (17-rasm). Sharqiy devor qalinligi 2-2,3 metrga ega. Dalvarzintepaning janubiy guruh qismiga 2, 4-7 xonalar kiritiladi. Barcha xona devorlari suvoq bilan bir qatoor qalinlikda to'ldirilgan. 2-xona (6x1,2 m) – 7 xona o'rtasida o'tish yo'laklari mavjud. Bir qancha vaqt davomida zallar, xonalar qurilish rejasi saqlab qolingan. Qayta rejalashtirish ishlari ham olib borildi. Hammomlar, minoralarga pishiq g'isht ishlatilgan. Suvoqlarning qalinligi 5-7 sm ni tashkil qiladi. topilmalar ham alohida ahamiyat kasb etadi. 2-xona pol qismidan ko'plab buyumlar topilgan. To'rt xil figurali o'yinchoqlar ham mavjud. Xuvishka davrida zarb qilingan 20 ga yaqin tangalar kumush, misdan yasalgan.²⁷

Mutaxassslarning ta'kidlashicha, buddaviylik (buddizm) dini (budda-sanskritda nurlangan degan ma'nolarni bildiradi) Termizga Shimoliy Hindistonning Gandhara (hozirgi Pokiston hududi), Nagaxara o'lkalari, Hindukush tog'lari va shimoliy Afg'oniston yerlari osha kirib kelgan.

Buddizm dinining Markaziy Osiyoda tarqalishi to'g'risida bir qancha nuqtayi nazarlar mavjud. Taniqli qadimshunos olim V.A.Litvinskiy fikricha, buddizmning ba'zi bir ko'rinishlari Markaziy Osiyoga miloddan avvalgi III-II asrlarda kirib kelgan. G.A.Koshelenko, Marg'iyonada (janubiy Turkmaniston hududidagi o'lka) bu din miloddan avvalgi II-I asrlarda mavjud bo'lgan deb

²⁷ Далварзентепе. Кушанский город на юге Узбекистана. Отв. ред. Ремпель Л.И. Изд.: «Фан». –Т., 1978. – Стр. 38-40.

hisoblaydi. B.Ya.Staviskiy ta'kidlashicha, buddizm dinining Markaziy Osiyoga kirib kelishi miloddan avvalgi 1-asrda sodir bo'lgan.

Fikrimizcha, buddizmning Oks-Amudaryodan shimol tomonda joylashgan o'lkalarga tarqalishi milodiy I asrga oid. Markaziy Osiyo buddizm dinining asosiy markazi hisoblangan Tarmitada bu din bilan bog'liq inshootlar asrimizning boshlarida barpo etilgan.

Ko'hna Termizning buddizm inshootlari shaharning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, diniy markazlar vazifasini o'tagan. Bu ibodatxonalar nafaqat shaharliklar, shuningdek, uning atrofida istiqomat etgan qishloq aholi uchun ham xizmat qilgan.

Fayoztepa, Qoratepa, Zo'rmola kabi yodgorliklar Ko'hna Termizning buddizm ibodatxonalari turkumiga kiradi. Fayoztepa shahar tashqarisida Qoratepadan I kilometr shimoliy-g'arbda joylashgan buddizm ibodatxonasi. Fayoztepa yodgorligi L.I.Albaum rahbarligida O'zbekiston FA Arxeologiya instituti va Surxondaryo viloyat o'lkani o'rganish muzeyining birlashgan guruhi tomonidan tadqiq etilgan.

Fayoztepa ibodatxonasi to'g'ri burchak ostida shimoliy-g'arbdan janubiy sharqqa yo'naltirib qurilgan, eni 34 metr, uzunligi 113 metrga teng inshoot. Bu ibodatxona uch asosiy qismdan, ya'ni markaziy imorat-sajdagoh, shuningdek, oshxona va omborxonalardan tashkil topgan.²⁸

Markazda hovli joylashgan bo'lib, uning to'rt tomoni bo'ylab ichki qismi devoriy rang tasvirlarga bezalgan ayvonlar qurilgan. O'z navbatida ibodatgohning har ikki tomonida eshiklari ayvonga qaratib qurilgan xonalar mavjud bo'lgan.

Ibodatkona bu qismining janubida joylashgan to'rtburchak shakldagi sig'inish joyi o'zining bezaklari bilan boshqalardan tubdan farq qiladi. Bu xonani mahobatli devoriy rang tasvirlar va haykallar bezab turgan.

Yuza qismiga zarhal suv yurgizib ishlangan bodxisatva va oq ganchdan tayyorlangan Budda haykallari kabilardir.

²⁸ Аннаев .Т.Ж.Кухна Термиз буддавийлик е"дгорликлари.//ермиз тарихий тадқиқотлар илмий хулосалар.Т.,2001й. 51бет

Ayniqsa, oq toshga o'yib ishlangan haykallar majmuasi alohida ahamiyatga molik. Tokchaga o'xshatib yo'nilgan toshning yuza qismida Buddaning muqaddas daraxt (bodxi) ostida chordona qurib o'tirgan qiyofasi o'yib ishlangan. Buddaning yon tomonlarida tik turgan holatda ruhoniylar aks ettirilgan.

Fayoztepa sajdagohi qazib o'rganilgan inshootning shimoliy-g'arbiy tomonida joylashgan. Unga markaziy qismga, ya'ni ibodatxonadan o'tilgan. Sajdagohning ham asosiy qismini ayvonli hovli tashkil etadi. Bu ayvondan turib ruhoniylar va'zxonlik qilganlar. Ibodatxonaning xo'jalik bilan bog'liq qismi tuli hajmdagi oshxona va omborxona vazifasini o'tagan xonalardan iborat. Bu joylardan xilma-xil o'yma naqshin lavhalarda, jumladan, Buddaning ramziy ifodalari, ya'ni muqaddas daraxt «bodxi» barglarini yoki Buddaning oyoq izlarini eslatuvchi shakllar bilan bezalgan idishlar ko'plab topilgan.

Fayoztepadagi asosiy inshootdan bir necha metr shimoliy-sharqda buddizm dinining muqaddas yodgorliklaridan biri bo'lmish stupa joylashgan.

Stupa hindularning sanskrit tilida «koinotning mujassami» degan ma'noni anglatadi.

Aksariyat holda supa saxna ustida qurilib, tanasi silindr shaklidagi ko'rinishga ega bu inshootning tepa qismi gumbazsimon shaklda qurilgan.

Bu turdagi inshootlar ibodatxona tarkibida, jumladan, Qoratepa va Fayoztepa ibodatxonalarida yoki alohida yodgorlik shaklida shahar tashqarisida qurilgan. Ana shunday yodgorliklardan biri ko'hna Termizning sharqiy tomonida joylashgan Zo'rmola hisoblanadi.

Fayoztepadagi stupa L.I.Albaumning ta'kidlashicha, miloddan avvalgi I asrning oxirida qurilgan bo'lib, gumbaz qismi rang tasvirlarga bo'yalgan. Keyinchalik bu stupaning ustidan yana ham mahobatliroq stupa qurilgan.

Fayoztepada Ko'hna Termizning Qoratepa o'rnidagi ibodatxona singari xatlarning uchrashi juda muhimdir. Fayoztepada uchragan xatlarning aksariyat qismi sopol idishlarning sirtiga bitilgan.

Hindshunos olimi V.V.Vetrogradova ma'lumotlariga ko'ra bu ibodatxonada baqtriya yoki kushon xatida bitilgan yozuv, hind alifbolari kxartoshthi, braxma, sanskrit va noma'lum alifboda bitilgan xatlar uchragan.

Fayoztepa – mil. 1-3 asrlarga oid monastir-ibodatxona majmuasi (vixara). Termiz shahri yaqinidagi Eski Termiz shahar xarobalarining shimoliy-g'arbida. *Qoratepa*dan 1 km shimoliy-sharqda joylashgan.

Fayoztepaning ochilishi 1968 yilning bahorida cho'pon Absad Becnayev tomonidan mergeliy ohak toshidan ishlangan Budda sanamini ko'chma o'um ustidan topib, Termiz o'lkashunoslik muzeyiga topshirishidan boshlandi. Yodgorlik 1968-1976 yillarda arxeolog L.I.Al'baum tomonidan o'rganildi. Fayoztepa maydoni ko'chma qumlar uyumidan tozalangach, uning me'yoriy tarhi ochilib, u 3 qismdan iborat monumental inshoot, ya'ni markaziy qismda – ibodatxona, uning shimoliy-g'arbida monastir, janubiy-sharqida esa xo'jalik qurilish inshootlaridan iboratligi aniqlangan. Majmuaning umumiy maydoni 1,5 ming kv.m ga yaqin.

Ibodadxona tarkibining asosiy qismlaridan biri – stupa bo'lib, u boshqa ibodatxonalardan farqli o'laroq, ibodatxona hovlisining markazida emas, balki uning tashqarisida, muqaddas sajdagoh bilan bir parallel chiziqda joylashgan. Ular o'zaro hovli maydonini kesib o'tgan g'isht va mergeliy toshi to'shalgan yoo'lakcha bilan bog'langan. Ibodatxonaning muqaddas sajdagohida Budda haykali (Bodxisatva) joylashgan, sajdagoh devorlari rang-barang devoriy suratlar bilan bezatilgan. Devorlar osti bo'ylab o'z vaqtida Budda haykallari (bal. 4m) qo'yilgan. Ko'pchilik haykallar qizil rang bilan bo'yalgan, so'ng ustidan oltin suvi yurgizilgan. Sajdagoh janub devorida qizil kiyimda Budda tasviri saqlangan. Uning ikki tomonidan yelkalariga yelkapo'sh tashlangan uzun kiyimdagi ikki odam rasmi tushirilgan. Ulardan biri Buddaga qarab sajda qilmoqda. Sajdagohning sharqiy devorida ham qandaydir devoriy rasmlar izi ko'rinadi. Xonadagi suvoq parchalarida har xil odamlarning rasmlari uchraydi. 60x80 sm li bir suvoq parchasida Buddaga yuzlangan ikkita erkakning rasmi topilgan. Har ikki shakl qiyofasiga ko'ra, baqtriyalik Budda ixlosmandlari bo'lib, ularning Buddaga sajda

qilish holati tasvirlangan. Ushbu xonada ganchkori haykal bo'laklari ko'plab uchraydi. Hatto xonaning sharqiy devori ostida haykallar uchun pishiq g'ishtdan maxsus tagkursi qurilgan, uning usti esa somon qo'shilgan loydan yasalib, ularning sirtiga ganch qoplama berilgan. Haykallarning boshi maxsus qolipda qo'yilgan. Qo'l va oyoqlari maxsus qolipda yasalib, so'ng ular haykal tanasiga yopishtirilgan.

Fayoztepa haykallari orasida ganchdan ishlangan Buddaning bosh qismi diqqatni o'ziga tortadi. Uning tutamlangan qop-qora sochlari, fusunkor chehrasi unga go'zallik bag'ishlaydi. Buddani bunday ishlanishi kushonlar davri yodgorligida birinchi bor uchrashi edi. Ushbu muqaddas sajdagoh eshigi qarshisida yaxlit mergeliy toshidan yasalgan noyob san'at asari mavjud. Sajdagohdan ikki Kanishka va bitta Vasudeva tangalari topilgan.

Ibodatxona hovlisi to'g'ri to'rtburchak shaklida, maydoni 33x20 m, uning to'rt tomoni bo'ylab budda rohiblarining eshiklari hovliga qaratilgan xonalari joylashgan. Ibodatxona hoalisi ushbu xonalarning hovli tomon devorlari bo'ylab yaxlit uzun ayvon bilan o'rab olingan. Ayvon devorlari rang-barang devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Rangli devoriy bezaklar ayvon devorining pastki qismidagina saqlangan. Ayvon osti bo'ylab supa joylashgan.

Ibodatxona hovlisining shimoliy-g'arbiy qismida, mergeliy tosh parchalaridan trapesiya shaklida qurilgan hovuzcha bo'lib, uning tomonining pastki qismda suv oqizishga mo'ljallanib teshikcha yasalgan. Teshikcha jag'lari keng ochilgan Sher boshi qiyofasida ishlangan. Bunday hovuzlarda toza suv saqlangan. Sher kushonlar davri san'atida Buddaning kuch va qudrat timsoli sifatida o'z aksini topgan. Diniy majmuaning ikki qismi – monastir bo'lib, u ibodatxona bilan hovli g'arbiy devoridan ochilgan eshik orqali bog'langan. Monastir maydonida joylashgan xonalarda rohiblar va monastir talabalari istiqomat qilishgan, monastirda o'quv xonalari va zallari, ziyoratchilar to'xtab o'tadigan yotoqxonalar joylashgan. Xonalar devorlarida pilta chiroq yoritqichlari uchun tokchalar ishlangan. Ayrim xonalarning devori ostida Budda haykallari va ularni o'rnatish uchun supa-tagkursilar qurilgan. Demak, rohib va talabalar hamda

ziyoratchi sayyohlar markaziy ibodatxonada diniy marosimlar to'xtagan vaqtda o'z ibodatlarini monastir sajdagohlarida amalga oshirganlar.

Ibodatxonaning janubiy-sharqida uning xo'jalik qismi joylashgan. Uning maydoni kvadrat shaklida, hajmi 34,5-33,5 m. u ibodatxona bilan 3 eshik orqali bog'langan. Ibodatxonaning xo'jalik qismida 15 ta xona ochilgan, ularning ko'pchiligida o'choq qoldiqlari topilgan. Majmua devorlari paxsa bilan tiklangan, xonalardagi suri-supalar va devorlarning ta'miri g'isht bilan urilgan. Hamma xonalar somon suvoq qilingan, faqat ikkita xona devorlari ganch bilan suvalgan. Bu ikki xona ibodatxona xo'jalik qismining sajdagohlari bo'lgan deb faraz qilinadi. Ikkita xonadan tandir va qalin kul uyumi topilgan. Tandırli xonalarni qazish vaqtida ko'plab hayvon suyaklari, xum, kosa, nimkosa, sopol qadah parchalari chiqqan. Xumlardan boshqa barcha idishlar kulolchilik charxida yasalgan va och-qizil rangli angob bilan qoplangan. Sopol sirti archa bargli, disksimon naqshlar bilan bezatilgan. Shuningdek, sopol parchalariga yalang oyoq Budda tovon izlari tushirilgan.

Sopollar ichida pilta chiroqlar va sopol qozonlar ko'plab uchraydi. Bir xonadan sopol quvur topilgan. Fayoztepaga Amudaryodan suv keltirilganligiga ishora qiluvchi kanal izi o'rganilgan. Ushbu kanalga Amudaryodan chig'ir orqali suv chiqarilgan deb faraz qilinadi. Ibodatxona xo'jalik qismining katta hovlisi aylanasi bo'ylab kengligi 0,7 m li supa qurilgan. Uni qazish vaqtida son-sanoqsiz turli hayvon suyaklari topilgan., ko'plab sopol ksosa va qadah parchalari uchratilgan. Ushbu hoali Budda va uning rohiblariga atab qurbonlik qiladigan joy sifatida talqin qilinadi.

Fayoztepa majmuasining devorlari, asosan, paxsa va g'ishtdan qurilgan, ayniqsa, monastir va ibodatxona devorlarining balandligi 3 m gacha saqlangan. Ibodatxona xo'jalik qismining janubiy-sharqiy devorlari yaxshi saqlanmagan. barcha devorlar somonli loy bilan suvalgan bo'lib, ko'p hollarda suvoq ustiga rangli rasmlar bilan bezatilgan.²⁹

²⁹ Ўзбекистан Миллий Энциклопедияси. Том .9.2005й. Бет 167.

Kushon davri Tarmita shahrining eng yirik buddizm ibodatxonalaridan biri Qoratepa hisoblanadi. Bu yodgorlik haqidagi ma'lumotlar 1926-yilda ma'lum bo'lgan.

Qoratepada ilk bor qazishma ishlarini 1936-1937-yillarda prof. M.Ye.Masson boshchiligidagi Termiz ekspeditsiyasi a'zolari amalga oshirganlar.

Qoratepa ibodatxonasida B.Ya.Stavitskiy boshchiligida Sankt-Peterburgdagi Davlat ermitaji, Moskvadagi Sharq xalqlari san'ati muzeyi, sharqshunoslik va Ta'mirlash institutlarining birlashgan ekspeditsiyasi ko'p yillar davomida uzluksiz ravishda qazishma ishlarini olib bordilar.

Qoratepa o'rnidagi ibodatxonaning shakllanishi milodiy II asrga oid. Milodiy II asrning birinchi choragi ko'pchilik tarixchi-qadimshunoslarning fikricha, Kushon davlatining eng yorqin vakili Kanishka I davlatni idora etgan yillariga to'g'ri keladi. Podsho Kanisha I hukmronligi davrida buddizm dini davlat dini deb e'lon qilingan.

Natijada o'z tarkibiga Baqtriya o'lkasi, janubda shimoliy Hindiston, sharqqa esa sharqiy Turkiston (hozirgi Shinjon-Uyg'ur muxtor viloyati)ni qamrab olgan Kushon davlati yerlarida yana ko'plab buddizm ibodatxonalariga asos solingan.

Qoratepa ibodatxonasi ham ayni shu hukmdor davlatni idora etgan davrda bunyod bo'lgan ibodatgoh joylardan biri sanaladi.

Umumiy maydoni 8gektarga yaqin tabiiy tepalik ustida bunyod etilgan bu yodgorlik qadimda o'nlab o'ziga xos imoratlar majmuasidan iborat ibodatxona bo'lgan.

Har bir alohida inshoot yer ostki va ustki qismida qurilgan xonalardan, jumladan, peshayvonli hovli, aylanma yoo'lakli ibodatgoh va bir-ikki koshinlar kulbasidan tashkil topgan. Bu'zi bir hovlilarda kichik hajmdagi stupalar ham joylashgan.

Qoratepadagi ibodatgoh va uning peshayvonlarida mshobatli rang-barang rangtasvirlar, xususan, Budda va Bodhisatva tasvirlari tushirilgan.

Ibodatxona devorlari buddaga tuhfa hadya etayotgan shaxslar suratlari, shuningdek, mahalliy va buddizm rivoyatlari bilan bezatilgan.

Bu ibodatxonadan devoriy rangtasvirlar bilan bir qatorda tosh, ganch, loydan yasalgan budda haykallari, hayvon bosh qismi o'yib ishlangan ustun qoshlari, ko'plab kichik san'at namunalari, ya'ni terrakot haykalchalar va xilma-xil sopol idishlar ham topilgan.

Qoratepa topilmalaridan eng muhimi, qadimgi yozuvlardir. Bu qism topilmalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh yozuvlar Qoratepa buddizm ibodatxonasi vazifasini o'tagan davrga oid bo'lib, xatlar qora siyohlarda idishlarning tashqi tomoniga bitilgan.

Ikkinchi guruh yozuvlar yozuv graffitlardir. Bu turdagi xatlar budizm ibodatxonasi tashlandiq holga kelib qolganda unga tashrif buyurgan shaxslar tomonidan devor betlariga chizib yozilgan.

Birinchi guruh yozuvlarning asosiy qismi qadimgi hind alifbolari kxaroshti va braxmada bitilgan xatlardan iborat. Bu xatlar diniy mazmunda bo'lib, buddizm aqidalaridan ko'chirmalar, ibodatxonaga tuhfa va uni hadya etgan shaxslar haqidadir.

Bir qism yozuvlar yunon alifbosida bitilgan bo'lib, Baqtriya yozuvi yoki kushon xati ham deb ataladi. Yozuvlar orasida oromiy alifbosida bitilgan noma'lum xat namunalari ham mavjud. Yozuv graffitlar o'rta fors va arab alifbosida bitilgan.

Qoratepada topilgan xatlarni o'qish va o'rganishda tilshunos olimlar V.A.Livshits, V.V.Vertogradova, Ya.Xarmatta, X.Xumbax va B.Mukerjilar katta hissa qo'shganlar.

Qoratepa – budda g'or ibodatxonalar majmuasi (mil. 1-3 asrlar). Eski Termizning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. Dastlab 1926-1928 yillarda Maskvadagi Sharq xalqlari madaniyati davlat muzeyi ekspeditsiyasi ochgan. 1937-yilda M.E.Masson va E.G.Pchelina tekshirgan. 1960-yillarda arxeolog B.Ya.Staviskiy qazish ishlari olib borgan. Hozirda O'zbekiston –Yaponiya qo'shma arxeologiya ekspeditsiyasi ish olib bormoqda.³⁰

^{30 30} Узбекистан Миллий Энциклопедияси. Том .11 2005й. Бет 167.

Obida 3 ta tabiiy do'nglikda qurilgan. Umumiy maydoni 8 ga dan ziyod. . Shimoliy do'nglikning sharqiy qismini yer yuzasida joylashgan monumental majmua egallagan, g'arbiy qismini esa yer yuzasiga qurilgan uncha hashamatli bo'lmagan ibodatxonalar band qilgan.

Qoratepadagi hamma imoratlar turli vaqtlarda barpo etilgan. Keyinchalik avvallariga yondosh qilib qurilgan, so'ng ular bilan bir vazifani bajarishgan. Hamma bir necha bor ta'mirlangan va tarhi o'zgartirilgan. Ibodatxonalar yoki boshqa muqaddas joylar ichi mavzuli (syujetli) va naqshinkor bezak, loy-ganch, ganch, tosh haykali bilan bezatilgan.

G'or ibodatxonalarini qurish qoidalari hindlardan o'zlashtirilgan. Ammo keyinroq qurilganlarini rejalashda baqtriylarning me'moriy usullari ustun turadi.

Qoratepa dastlabki buddaviy ibodat inshootlari, aftidan, mil.1-asrda qurila boshlagan. Qoratepaning eng gullagan davrida mil. 2-3 asrlarga to'g'ri kelib, bu paytda ibodatxonalar ko'plab qurilgan, avvallari esa yangilangan hamda bezatilgan. Bu jarayonda kushonshohlar, ularning noiblari, shahar hokimlari va badavlat shaharliklarning homiyligi hamda madadi muhim o'rin tutgan. Qoratepadan topilgan, bag'ishlov bitiklari bo'lgan sopollar bu holatni aniq ko'rsatadi. Bitiklarga ko'ra, Qoratepadagi ayrim majmuotlar Kvadevakavixara – Podsho monastiri, Vxara Guavxara vxad – Gulavxara o'g'li (Gondafar) Vixarasi, Okavixara deb nomlangan. Qoratepa bitiklarida rohiblardan Buddashir, Buddxamitra, Jivananda ismlari eslatib o'tilgan. Boy erkak va ayol homiylar qiyofasi rasmlarda hamda haykallarda saqlanib qolgan. Qoratepadan ko'plab Budda haykallari topilgan.

Mil. 3-asr oxiriga kelib Qoratepa majmualari inqirozga yuz tutdi yoki vayron etildi. Bu, sosoniylarning Kushon davlatiga qilgan harbiy yurishlari bilan og'liq bo'lsa kerak. ayrim majmuotlar xonalariga otashkadalar o'rnatilgan. Ayni mahalda Qoratepa majmuotlarining muayyan qismi mil. 4 asr oxiri – 5 –asr boshigacha ishlab turgan. Mil. 4 asrdayoq Qoratepadagi ko'plab tashlandiq xonalar va g'or ibodatxonalaridan qabr sifatida foydalanilgan, so'ng kirish joylari xom g'isht bilan urib yuborilgan. Eng dastlabki qabrlar yonida kushon-sosoniylar tipidagi tangalar,

Peroz tangalari va unga taqlidan zarb qilingan tangalar uchraydi, keyingi qabrlarda esa mil. 5-6 asrlardagi Termiz hukmdorlari tangalari topilgan, ularning bir tomonida langar tasvirlangan. 7-asrdan 12-asrgacha Qoratepadagi yarim ko'milgan ayrim xonalar va g'orlardan zohidlar foydalanishgan.

Qoratepadan topilgan rasmlar, haykallar va boshqa dekarativ-amaliy san'at buyumlari kushonlar davridan Tarmita – Termizda o'ziga xos an'ana va yo'nalishga ega bo'lgan alohida badiiy maktab bo'lganidan dalolat beradi. Bu maktab kushonlar davrida Baqtriya badiiy madaniyatininggina emas, balki butun antik madaniyatning rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Qazish paytida Qoratepadan Kushon podsholigi davriga oid sopol idishlar, kosa va ko'zachalar, mis chaqalar, ohaktoshdan ishlangan me'morlik detallari, plitalar, sopol chirog'donlar topilgan. Topilmalar ichida 70 dan ortiq sopol idish siniqlariga hindcha bitilgan yozuvlar (qharoshti va brahma yozuvlari) va devorlarga chizilgan kushon-baqtriya hamda fors-pahlaviy yozuvlari xarakterli.

Qoratepa ham Fayoztepa ibodatxonasi kabi IV asr oxirigacha faoliyat ko'rsatib, V asr boshlarida sosoniylar eroni qo'shinlarining bosqinidan so'ng tashlandiq holga kelib, asta-sekin vayronaga aylangan.

1963-1964 yillar Sharq xalqlarining muzey san'ati va Davlat ermitaji hamkorligidagi arxeologik ekspedisiya Ko'hna Termizda olib borildi. Ilgarigidek ekspedisiya ishi O'zFA Tarix va Arxeologiya instituti bilan kelishilgan holda amalga oshirildi. Budda monastrlarining qoldiqlari saqlanib qolgan Qoratepada qazuv ishlari olib borildi.

Qoratepaning arxeologik yodgorlik sifatidagi ahamiyati katta. Bu o'rganish natijasida yangi muhim tarixiy-madaniy savollarga javob topilmoqda. 1963-1964 yillardagi qazuv ishlari natijasida Qoratepa yodgorligi batafsil o'rganib chiqildi.

1963-1964 yillardagi tadqiqot davrida g'arbiy hovli devori, janubiy devorning 3,5 m ajratilgan qismi, ichki xonalar, o'tish yo'lagi (kengligi 0,8 m) o'rganildi. Hovlining o'tish yo'lagi pastki qismlari qumlik bilan qoplangan.

Kvadrat shaklidagi eshiklar o'lchami 34x34x11-12 sm. Arxeologik tadqiqot natijasida ko'plab materiallar, ashyolar qo'lga kiritilgan.³¹

1963-1964 yillar P-II kompleksining B qismidagi xonalar o'rganib chiqildi (Janubiy va shimoliy). Shimoliy yo'lak qum qatlamga ega. Loy bilan ham qoplangan qismlar mavjud. Zinapoya shaklidagi joylarning kengligi 1,1 m. balandligi 20 sm, eni 34 sm, ikkinchi va uchinchi zinapoya 35 sm ni tashkil qiladi. Ushbu zinapoyalarning loy, g'isht yo'laklardan ishlanganligi ma'lum bo'ladi. Shimoliy yo'lak pol (yo'lak) qismi loy aralashmasidan ishlangan uchta qatlamga ega. Xonalarning shimoliy-sharqiy ko'rinishi P-II shartli nomlanib, qandaydir bir vaqt bu yerda ikkinchi pol qism qurilgan. Devorlar esa suvoq qilinib, yozuvlar bosilganligi ma'lum bo'ladi. Ushbu yozuvlar uchburchak shaklda bitilganligi bilan ba'zi o'rinlarda ajralib turadi. P-II binosining pol-tag qismlar ham alohida o'rin egallaydi. G'ishtlarning qalinligi esa 35 sm.³²

1963-1964 yillardagi qazuv jarayonida ko'plab predmetlar topildi. Loy idish va terrakota, tosh relyef, me'moriy detallar ham o'rganildi. Suvoqlar asosan gips bilan ishlangan. Suvoqqa yozuv grafitlar bilan birga bitilgan.

1963-1964 yillarda sopol buyumlar turli xil ko'rinishdagi loy idishlar topilgan bo'lib, ularning ko'rinishi – figuralari to'liq saqlanib qolingan. Asosiy qismi mavsumiy dala qazuvi jarayonida topildi.

1963-1964 yillardagi qazuv ishlarida XI-XIII asrlarga oid o'rta asr loy idishlar ham topildi. Shisha idishlar, bo'laklar yuqori va quyi qatlamlardan topildi. Sopol idishlarning asosiy qismi 1963-1964 yillar qo'lga kiritildi. Qoratepa monastrlarida doimiy hamt bo'lganligidan guvohlik beradi. Idishlar oziq-ovqat mahsulotlari uchun xizmat qilgan. Loy idishlarni ta'mirlash texnikasiga qarab, ularni uch guruhga bo'lishimiz mumkin: 1) qizil va qora rangdagi sopol idishlar; 2) qora-qizil aylana idishlar; 3) aylana shakldagi ishlangan umumiy ko'rinishdagi idishlar.

³¹ Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. Под общ.ред. Ставиского Б.Я. –М., Изд. Вост. Лит., 1969. –Стр. 9-10.

³² Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. Под общ.ред. Ставиского Б.Я. –М., Изд. Вост. Лит., 1969. –Стр. 13-14.

Tarelka, chashka va boshqa idishlar ham ko'p uchraydi. Oval shaklidagi idishlar alohida o'rganilgan. Relyef tasvirida ham sopol idishlar ham bor. Qush shaklidagi qopqoqlar, uncha katta bo'lmagan idishlar, hayvon ko'rinishidagi idishlar ham uchraydi. Qiziqarli bo'lak qismlar, figurali idishlar ko'plab xonalardan topilgan.³³

1963-1964 yillar Qoratepadan tosh detallar ham topib o'rganildi. B kompleksning shimoliy-g'arbiy burchagidan ko'plab buyumlar olingan. Beshta uncha katta bo'lmagan tosh bloklar ham bor. Har birining eni 25 sm, balandligi 15 sm, chuqurligi 22 sm. to'rtta blokning yuza tomonlari yaxshi ishlangan. Barcha bloklarning yon tomoni tenglikka ega emas. Shubhasiz, uchburchak ostidagi reja qandaydir qurilish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. O'rta Osiyodagi yodgorliklarda bunday holat kam uchraydi. Ammo Qoratepada bu yagona emas.

B kompleksi yo'laklarida tadqiqot ishlari olib borilib, ko'plab qatlamlar ochib o'rganildi. Rasm – graffitlar B kompleksining barcha sharqiy devorlarining suvoqlariga bitilgan. Ammo ayrim qizil tasvirlarni to'liq izohlash qiyin. Sharqiy yo'lakda ot tasviri ishlangan. Devorlarning barcha qatlami suvoq bilan ham bezatilgan. Turli xil ranglar bilan ham bezatilgan. G'or ko'rinishidagi barcha xonalardagi devorlarda rasmlar orqali bezatish tasvirlangan. Balandligi 31 sm bo'lgan erkak kishining tasviri g'or yo'lagiga ishlangan. Bu sharqiy yo'lak va arkdan uzoq bo'lmagan hududda joylashgan. Ushbu rasm – graffitlar suratkashning asosiy ijodkorligi bo'lib hisoblanadi. Rasmda erkak kishining boshi chizilgan. Burni, mo'ylovlari aniq aks ettirilgan. Qoshlari aniq chizilib, qulog'ida sirg'a aks ettirilgan. Sochlari lenta bilan o'ralgan. Qoratepada mana shu kabi qiziqarli rasm-graffitlar ko'pchilikni tashkil etadi. Qadimgi O'rta Osiyo, Hindiston san'ati va madaniyatini tadqiq qilishda bunga alohida e'tibor qaratilgan. Xioniylar. Eftaliylar tangalari, muhrlari ham topilgan. Muhr va tangalarni ikki guruhga bo'lish mumkin: 1) bir qadar ilgariroq davr, ya'ni Qoratepadagi tasvirlar bilan bir davrga tegishlilari; 2) IV-V asrga tegishli yodgorlik ashyolari.

³³ Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. Под общ.ред. Ставиского Б.Я. –М., Изд. Вост. Лит., 1969. –Стр. 16-19.

Rasm-graffitlar orasida o'ziga xos devoriy suratlar alohida ahamiyat kasb etadi. G'or devorlarining ko'pchilik qismi suratlardan xoli emas. G'or devorlarining har birida o'nlab rasmlar o'rin egallaydi. Qoratepadagi suratlar arablar davrigacha bo'lgan holatlarni aks ettiradi. Qoratepa suratlari qadimgi budda relyeflarini o'zida aks ettiradi.³⁴

Turli xil tildagi yozuvlar Qoratepadan ham yozilgan. Sharqshunos-lingvistlar va arxeologlar ushbu yozuvlarning ahamiyatini o'rganib chiqildi. Bunday yozuvlar qazuv ishlarining birinchi yiliyoq topilgan. Agarda 1961-1962 yillar topilma buyumlarning asosini loy idishlar tashkil qilgan bo'lsa, ularning ko'pchiligida yozuvlar mavjud. Sanskrit, ya'ni qadimgi hind alfavitidagi braxman va kxarashtxi yozuvida bitilgan. 1963-1964 yillar yangi arxeologik tadqiqot ishlari olib borildi. Idishlarga yozuvlar bitilgan. Xonalar devoriga ham yozuv-graffitlar aks ettirilgan. Suvoq orqali namoyon qilingan. Kushon yozuvi, shuningdek, grek alfavitidagi yozuvlar ham uchraydi. Bu yozuvlar Kushonlar davrida Baqtriyada keng yoyilgan. Xioniy-eftaliylar davri bilan ham keng bog'liq hisoblanadi. B kompleksining xonalaridan topilgan narsa-buyumlarning deyarli ko'pchiligida yozuvlar mavjud. Yozuvlar ikki xil bo'lib: 1) chap tomondan boshlanib, braxma yozuvi bilan tgallangan (T.V.Grek o'qigan bo'lib, Vua qo'shimchasi borligini ta'kidlagan); 2) o'ngdan boshlanib, bu «Kushon yozuvi» - «Budda» ma'nosini anglatgan.

Yozuv-graffitlarning asosiy qismi 1963-1964 yillar ochildi. B kompleksi xonalari, derazalaridagi yozuvlarning ko'pchiligi ham shu davrlarga oid bo'lib hisoblanadi. Qoratepaning oxirgi ko'rinishi ham tahlil qilingan. Qolgan yozuv-graffitlarning qolganlari esa fors yozusv turkumiga kiradi. V.G.Lukonin o'z maqolasida buni ko'rsatib o'tgan. Yozuvlar turli joydan topilgan bo'lsa-da, bir vaqtda bitilgan. SP-1 yozuv guruhi g'orning shimoliy yo'lagi, SP-2 esa janubiy xonalar devori «Zik dabir» so'zi – «dabir» atamasi, tadqiqotchi V.G.Lukoninning fikricha, sosoniylar harbiy boshlig'ining kotibi ham chegara viloyat hukmdori

³⁴ Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. Под общ.ред. Ставиского Б.Я. –М., Изд. Вост. Лит., 1969. –Стр. 21-24.

ma'nosini anglatadi. Yozuv-graffitlarning ko'pchiligi hkd alfavitida bitilgan. Ulardan biri, tadqiqotchi T.V.Grekning fikricha, braxma alfavitida yozilgan.³⁵

B kompleks xonalaridagi devorlarning ko'pchiligiga kushon yozuvi bitilgan. V.A.Livshis, so'ngra V.B.Xenning bularni baqtriya yozuvi deb nomlaydi. Ushbu yozuvlar amalda shimoliy va janubiy yo'laklarda saqlanib qolgan. Sharqiy devorlarning deyarli barchasida uchraydi. Ushbu yozuvlarning aniq hisobini aytish qiyin. Ayrimlari faqat so'z yoki belgini ifodalagan. Saqlanish holati ham turlicha bo'lib, ko'pchiligi deyarli yaxshi saqlangan.

V.A.Livshis bergan paleografik ma'lumotga ko'ra, ushbu yozuvlarni ikkita xronologik guruhga bo'lish mumkin. Nisbatan (yozilgan davri ilgariroq) ilgari davrga tegishli yozuvlar va biling va qoldiqlari bo'lib hisoblanadi. Keyingi gruhi esa bir qator eftaliylar tangalarini eslatadi. V.A.livshis o'nga yaqin baqtriya yozuvlarini guruhlarga ajratgan. Ushbu yozuvlardan eng qadimgisi B-1 guruhidir. B kompleksi xonalariga kirish yo'lagida bitilgan. Yozuv qisman saqlanib qolgan. Bizgacha ularning to'liq bo'lmagan to'rt qismi saqlanib qolgan. Oltita nomdan iborat. Bular Qoratepa monastr xodimlari bo'lishi mumkin. B-2, B-3, B-4, B-5, B-6 yozuv guruhlari ilk davrga tegishlidir. B-8, B-10 yozuv guruhlari esa keyingi davr yozuvlari hisoblanadi. V.A.Livshis o'z maqolasida «Kushon yozuvi» - yozuv-graffitlarini batafsil ma'lum qilgan. Qoratepa tarixi xususida Kushon podsholigi xronologiyasi orqali ma'lumot olishimiz mumkin.³⁶

Qoratepaning qazib o'rganilishi natijasida shu narsa bizga ma'lum bo'ldiki, ushbu arxeologik yodgorlik keng va turli xil tarixiy muammolar bilan bog'liq. 1961-1962-yillardagi ishlar hisoboti yanada aniqlik kiritadi. Bu kushonlar davridagi Baqtriya (Toxariston) san'ati, buddizmning Hindistondan O'rta va Markaziy Osiyoga yoyilishi, buddizmning O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va san'ati tarixidagi o'rni masalalaridir. Ushbu murakkab ilmiy muammo asta-sekin har bir dala tadqiqotidan so'n o'z yechimini topib boradi. 1963-1966-yillar Qoratepa xusuida ko'plab materiallar qo'lga kiritilgan. Ikkita masala o'z yechimini

³⁵ Грек Т.В. Новые индийский надписи из раскопок Кара-тепа//Кара-тепа-4.М.,Наука.1975г.Стр 118-121. Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. Под общ.ред. Ставиского Б.Я. –М., Изд. Вост. Лит., 1969. –Стр. 25-28.

topishi muhimdir. Bular: 1) Qoratepadagi budda monastrlarining asosiy xususiyatlari; 2) Kushonlar davridagi Baqtriya madaniyati va san'ati bilan bog'liq muammolar.

Qoratepa (tepalik) yodgorligidagi 1963-1964-yillar olib borilgan tadqiqotlar bir qancha kompleks muammolarga javob bera oladi. Qoratepadagi inshootlar ko'rinishiga ko'ra ikki xildir. Xonalar qurilishini ham alohida rejalashtirish xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. Masalan, A, B komplekslarning ayvonlari va xona binolari, yo'lak va markaxiy xonalarni o'z ichiga oladi. P-1, P-2 xonalari 1934 va 1936-yillar G.V.Parfenov tomonidan o'rganib chiqilgan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, komplekslarning birinchi turi – diniy inshootlar ko'rinishiga ega. G'or, yo'laklar inshootning turli qismlarida uchraydi. 1963-1964-yillardagi arxeologik materiallar Qoratepa tarixi xususida ko'plab ma'lumotlarni beradi. Kushonlar podsholigi davrida, ya'ni Kanishka, Xuvishka, Vasudevalar hukmronligi ham Qoratepa yodgorligi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.³⁷

³⁷ Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. Под общ.ред. Ставиского Б.Я. –М., Изд. Вост. Лит., 1969. –Стр. 30-32.

III Bob. O'zbekiston hududida antik davr yodgorliklari moddiy madaniyati.

Ayrtom Termiz shaxridan 18 km sharqda Amudaryo bo'yida joylashgan. Ayrtom kushonlar davriga oid o'ziga xos yodgorlikdir, ya'ni bu yerdagi imoratlar tarqoq xolda joylashgan xozir yodgorlikning anchagina qismini Amudaryo suvlari yuvib ketgan. Ayrtomni o'rganishga bir tasodif sabab bo'ldi. Bu 1932 yilning kuz faslida sodir bo'lgan edi. Chegarachilar katerda suzib ketayotib, daryo tagida yotgan qandaydir katta bir tosh bo'lagiga ko'zlari tushib qoldi. Toshda odamlar tasvirlangan edi. Ular bu toshni daryo tagidan ko'tarib olib, Toshkentga, olimlarga xabar berdilarlar. Tezda Termizga bir guruh olimlar yetib keldi.

Ular orasida mashhur olim M. E. Massoy xam bor edi. U mazkur toshda tasvirlangan rasmlarning sinchiklab o'rganib, uni kushonlar davriga oid ekailpgini aniqladi. Tosh daryo bo'yida joylashgan baland tepadan kulab tushgan edi. Xozir bu topnlma Ermitaj zallaridan birini bezatib turibdi.

1933 yilning kuzda Ayrtomni o'rganishga maxsus ekspedisiya uyushtirildi. Ekspedisiya o'z ishlarini mazkur tosh qulab tushgan tepalikni o'rganishdan boshladi. Ma'lum bo'lishncha, bu tepa ibodatxona xarobasi bo'lib, undan xar xil qiyofadagi va mazmundagi xaykallar topildi. Ular asosan, oqtoshdan yasalgan. qachonlardir ibodatxona karnizini bezatib turgan uch sozandannng xaykallaridir . Karnizning bir tomonida yuzini sal o'ngga burib turgan va chiltor chertayotgan kulcha yuzli, ko'zlari katta, qoshlar tutashgan, kirra burunli, lablari qalin yosh ayolning xaykali tasvirlangan. Ayolning egnida qimmmatbaxo kiyim, quloqlarida sirg'a, qo'llarida bilakuzuk, bo'ynida marjonlar bor. Torga o'xshash cholg'u asbob chalayotgan- ikkinchi ayol biroz chapga karab turgan xolatda tasvirlangan. Unin egnidagi kiyim birinchi ayolning egnidagi kiyimmdan jozibasi bilam ajralib turadi. Qo'llarida bilakuzuk bor, quloqlarda srg'a bor-yoqligi bilinmaydi. Chunki ayolning boshi ro'mol bilan o'ralgan. Ayolning ro'mol o'rash uslubi diqatga sazovor. Ro'molning bir uchi or-qaga tashlangan, ikkinchi uchi esa ayol yelkasi va qo'lining yuqori qismini yopib turibdi. Bu ikki ayol oralig'ida akant yaprogi tasvirlangan. Yaproq uchi oldinga biroz egilgan xolatda aks ettirilgan.

Uchinchi xaykalda arfa chalayotgan yosh sozanda tasvirlangan. Sozapdani yigit yoki qiz ekanligini xaykalga qarab aniqlash mumkin. Uning yuzi dumaloq, ko'zlari katta, qovoqlari solingan, qoshlari tutashib ketgan, sochlari kalta va jingalak. Bu sozandanning quloqlarida xam sirg'a, qo'llarida bilakuzuk, bo'ynida marjonlari bor.

Mazkur sozanda bilan tor chalayotgan sozanda orasida xuddi oldingidagidek akant yaproqlarini tasviri bor. Uchinchi sozandadan keyin xam yana bir akant yaprog'i aks ettirilgan. Biznigcha, bu rahda yana ikki sozandani xaykali bo'lgan. Lekin ular bizgacha yetib kelmagan. Zero budda dini bilan bolgan qadimgi xind afsonalarida beshta «mukaddas tovush taratuvchi» musiqa asboblari: chiltor, tor, nog'ora, ud va kimvalax qayd qilingan. O'z-o'zidan ravshanki, bu besh asbobni besh kishi chalgan. Rivoyatlarda aytinishicha, bu «sozandalar gruppasi» Buddaga lazzat, zavq bag'ishlashi kerak bo'lgan. Xaykallarning tagda xam qator akant yaprog'lar tasvirlangan. Ammo bular sozandalar orasida tasvirlan yaproqlardan kichikroq. Sozandalarning yuz qiyofasi Ganxara, yunon-rim xaykallari qiyofasidan tubdan farq qiladi. Bu xol ayniqsa diqatga sazovardir. Demak, bu san'at asari, baktriyalik xaykaltaroshning maxsulidir. Unda xaqiqiy baktriyalikning yuz qiyofasi aks ettirilgan. Uchala sozanda chehrasidan xam yengil tabassum sezilib turibdi. Lekin, umuman olganda, ularning chehralari shavqsiz, tang va turg'un.

Ularda Xolchayondan topilgan xaykallarda bo'lgandek tuyg'unlik va jo'shqinlik alomatlari sezilmaydi. Ayrtom ibodatxonaspda juda ko'p boshqa xaykallar xam topilgan. Ularning ko'pchiligda osmon parilari— devaputrlar tasvirlangan. Parilar gulchambar va ichida xushbo'y modda solingan idishlar ko'tarib kelayotgan xolatda aks ettirilgan. Mazkur obrazlar xam budda dini bilan bo'liqdir. Agar sozandalar Buddaga lazzat va zavq bag'ishlagan bo'lsa, u xolatda parilar uning yo'liga gullar to'shaganlar va atir purkaganlar.³⁸

Taxmin qilinishicha, Ayrtom ibodatxonasidan topilgan xaykallar asosan Buddaning o'lim marosimi bilan bolgan bo'lgan. Ayrtom xaykallari, so'zsiz,

³⁸ Пидяев Ш.Р. Сирли кушонлар салтант. Тошкент 1990. 30 бет.

kushonlar davridagp Baqtrya madaniyatining bag'oyat yuqori taraqqiyotidan guvohlik beradi.

So'ngi yillarda Surxondaryoda joylashgan kushonlar davriga oid yana bir yodgorlik—Angor rayoni yaqinidagi Zartepada xam kazish ishlari olib borildi. Bu ko'ra shaxar to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning tomonlari 400 metr, ya'ni 16 gektar maydonni egallagan. Ko'rinib turibdiki, xokimiyat shaxar qurulishi bo'yicha maxsus yo'l tutgan. Bu davrda shaxarlarning xammasi to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lgan.³⁹

Buni yuqorida tilga olingan Xolchayon, Dalvarzintepa misolida xam ko'rgan edik. Zartepadagi dastlabki tekshirishlar natijasi arxeologlar kutgandan xam ziyodroq bo'lib chiqdi. Qazish ishlari shaxar markazidagi ma'muriy binoning xarobalarnda 1972 yildan beri davom etayapti. Bu yerda xozir o'ndan ortiq xonalar ochilgan. Ochilgan xonalardai biri o'zshshng kattaligi bilan ajralib turadi. Uning bo'yi 17,8 metr, eni esa 9,2 metr. Devorlari paxsadan bo'lgan xonalar kalin loy bilan suvolgan. Xonaning shipinini 12 ta ustuni ko'tarib turibdi. Ular ikki qatordan qo'yilgan bo'lib, xar bir qatorda bittadan ustun bo'lgan. Afsuski, ustunlarning o'zi boshqa yodgorlnklardagi kabi yog'ochdan bo'lgani uchun bizgacha yetib kelmagan. Ammo ustunlarnpng tagkursilari dastlabki o'rnatilgan joyida turibdi. Bu tagkursilarining xammasi oqtoshdan tayyorlangan.

Mana bir necha yildirki Zartepada yana bir muhum obyektda arxeologik qidiruv ishlari olib borildi. Arxeologlar shaxar axolisining, asosan, ishlab chiqaruvchi qismining xayoti va turmushini o'rgannshni o'rganishni oldilariga maqsad qilib qo'yganlar. Chunki bu eng kam o'rganilgan muammolardan biri xisoblanad. Bu yerda olib borilgan arxeologik qidiruv ishlarinnng natijalari diqqatni tortadi. Chunki shashar axolisini yashaydigan maskanlarning katta bir qismi ochib o'rganilgan.

Ma'lum bo'lishicha, ochilgan mahalla uylari kattagina uzun ko'chalarning ikki tamonida joylashgan bo'lib, ular uch-to'rt yoki undan ortiq xonalardan iborat bo'lgan ekan. Uylarning eshiklarn ko'chaga qaragan, lekin ba'zi uylar ichkarisida

³⁹ Стаиский Б.Я. Кушанская Бактрия; проблемы истории и культуры. Из-во «Наука». М., 1977. Стр. 244

joylashgani uchun ularga tor yo'lakchalar orqali borilgan. Xonalarning maydoni 4 kv m— 15 kv m gacha. Shunday bo'lsada, maydonikichik xonalar xam ko'p. Uylarning devorlari ganch yokn loy bilan su-valgan bo'lib, xom g'ishtdan qurilgan. Uylarda supa, o'choqlar topilgan. Arxeologik topilmalar esa bu yerda shaxar axolisi xayoti va turmushini yetarli darajada yoritishga va umuman, shaxar qurilishi to'g'risida tasavvur olishga imkon berdi. Umuman olganda, Zartepada ochilgan maxalla o'zining tuzilishi bilan Toshkent, Samarkand, Buxoro va boshka shaarlarning eski paytlardagi uylarining qurilishini eslatadi. Zartepada butparastlarning ibodatxonasi xam ochilgan. qazish davomnda bu yerda oltin suvi yuritilgan Budda xaykalining boshi va boshqa qismlari topilgan.

Ma'lum bo'lishicha, Zartepa axolisi asosan Budda diniga sig'inishgan. Chunki 1970 yilda Zartepada mazkur ibodatxonadan tashqari buddaning stupasi xam borligi aniqlandi. Stupa Zartepadan 200 metrcha sharqda joylashgan va ikki metr balandlikkacha saqlanib kolgan. Uning asosi to'rtburchak shaklida bo'lib, to'rt burchak g'ishtlardan kurnlgan ekan. G'ishtlarning bir tomonida turli tamg'alari bo'lgan. Stupaning silindr shaklpdagi qismi bor-yo'g'i 60 sm saqlanib qolgan. qizig'i shundaki, stupanlarning o'rtasida gumbazsimon tokcha bo'lgan ekan. Tokchadan bitta oltin plastinka,, ko'zacha va 500 dan ortiq Kushon shoxi Vasudeva I va uning tangalarga taqlid kilib chiqarilgan bronza tangalar topildp. Tangalar tokchanning butun maydonida, turli balandlikda bitta, ikkita yoki uchtdan kesaklar bilan birga yotgan edilar. Stupa kurilayotganda shaxarning budda diniga sajda qiladigan axolisi bittadam yoki undan ortik tanga tashlab o'tishgan va so'ngra gumbaz yopilib, u stupaning tagida qolib ketgan. Ma'lumki, ko'pincha stupalarpng tagida shunga o'xshash maxsus boylik saqlaydigan joylar bo'lgan. Ular odamlardan yig'ilgan, lekin to'plab bo'lingandan keyin unga xech kimnnng tegishi mumkpn bo'lmagan. U endi mazkur stupaning boyligi xisoblangan. Ammo bu boyliklar bpzgacha to'liq yetib kelmagan. Chunki ularni o'sha vaqtlardayoq yoki keyinroq o'g'irlab ketishgan. Xullas, bu gal arxeologlarning omadi kelganligi ma'lum bo'ldi. Bu tangalar, birinchidan, mazkur stupaning qachon qurilganpni

aniqlashga yordam bersa, ikkinchidan, kushonlar xukmronlik qilgan davrda Baktriya iqtisodi va pul. muomalasi qanday ekanligini aniqlashga imkon beradi, Shaxar mudofaa inshootlarini o'rganishda xam bu yerda arxeologlar ma'lum muvaffaqiyatlarga erishganlar. Xozir Zartepada 100 metrli mudofaa devorining katta qismi ochib o'rganildi. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, turli tarixiy davrlarda shaxarning devorlari xar xil qalinlikda bo'lgan. Shaxar barpo qilingan davrdagi (miloddan oldingi I asr) devorining kalinligi 9 metrga yaqin bo'lsa, so'nggi davrda (milodning IV—V asrlari) devorining qalinligi undan ikki marta kam bo'lgan. Zartepaning mudofaa devorlari yarim -aylana shaklidagi minoralar bilan mustahkamlangan.⁴⁰

Minoralarning oralig'ida 34 metr. Ularda shinaklar — nishon tuynuklari bulgan. Shinaklar orqali yov o'qqa tutilgan. Devorlarning o'zida xam shinaklar bo'lgan. Lekin ularning xammasi xam xaqiqiy bo'lavermagan. Devordagi shinaklarning ko'pi dushmanni aldash va vasvasaga solish maqsadida qilingan. Shaxarning mudofaa qudratini oshirish maqsadida shaxar to'rt tomondan xandaq bilan o'ralgan. xandaq esa, o'z navbatida, suv bilan to'ldirilgan. Zartepadagi xandaqlarning o'ni xozir xam yaxshi saqlanib qolgan. Kadimda bu shaxarda 4 ta darvozasi bo'lgan. xonaning arki shaxarning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan bo'lib, u aloxida xandak bilan shaxardan ajratilgan. Bu manzarani boshqa shaxarlarda, xususi Dalvarzintepada xam ko'rish mumkin. Ark va shaxar oyma ko'pri orqali bir-biri bilan bog'langan. Zartepada qazish davomida juda ko'p turli-tuman sopol idishlar, xaykallar, tangalar, taqinchoqlar, mexnat qurollarni topildi.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubida joylashgan. Umumiy maydoni 20.000 km². Respublikamiz maydonining 4.690 km egallaydi. Shimoldan janubga qadar uzunligi 150-200 km ni tashkil qiladi. viloyatning maydoni uchburchak shaklni esga soladi. Yillik o'rtacha temperatura 17-18 S⁰ ni ko'rsatadi. Viloyat hududining yarmini tog'lar egallaydi. E.A.Yurkovin va E.V.Rtveladzelar viloyatdagi tarixiy yodgorliklarni o'rganish bilan shug'ullangan. E.A.Yurkovin

⁴⁰ Завъялов.В.А.Рвскопки квартала познекушанског времени на городищи Зар-тепе//СА1973 №3.Стр141-154.

yodgorliklarni uch turga bo'ladi: yirik shahar xarobalari (o'rni) – shahronovsoy (350 ga), o'rta o'lchamdagi shahar maydonlari Kaykobodshoh (12), Ko'hnaqal'a; Dalvarzintepa (30 ga), Zartepa (15 ga).

Ikkinchi guruh – ikki turga bo'linadi. Maydoni 4 gektarni tashkil qilgan Munchoqtepa, Qultepa, Haydarobodtepa kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Kushonlar davri yodgorliklarini arxeolog-tadqiqotchi E.A.Yurkovin tasniflab, guruhlarga bo'lib chiqqan. E.V.Rtveladze esa yodgorliklarni rejalashtirish asosida o'rganib chiqa boshladi. Yodgorliklarni to'rt guruhga bo'ladi: maydoni 1 gektar bo'lgan tarixiy yodgorliklar; maydoni 1-6 gektar bo'lgan yodgorliklar; maydoni 6-15 ga bo'lgan yodgorliklar.

Sherobod tumanining o'zida antik davrga oid 23 ta yodgorlik borligi aniqlandi. Joylashishi bir-biriga yaqin bo'lib hisoblanadi. Ularning topografik holati o'rganib chiqildi. Sherobod tumanidagi 16 ta yodgorlik 1-turga kiritiladi: B-14, B-17-24, B-28-32, B-36, B-39-40. Ularning ko'pchiligi sug'orish maydonlariga to'g'ri keladi. Ularning ba'zilari o'z joyini yo'qotgan. Turar-joy hisoblangan Xalinchaktepa – B-14, Aysaritepalar mudofaa devorlariga ega bo'lgan. Oqqo'rg'on – B13; Nazarbobotepa – B-20; ularning xonalari aholi uchun tarar-joy vazifasini bajargan. Sherobod rayonidagi 10 ga yaqin turar-joy manzilgohlarida qazish, qidiruv ishlari olib borildi. Oqqo'rg'on to'liq qazib chiqildi.

Nazarbobotepa (B-20) Oqqo'rg'ondan 2 km shimoliy masofada joylashgan bo'lib, hozirgi vaqtda aniqlanmagan obyekt qolmagan. Tepaning maydoni 0,3 ga ni tashkil etadi. Deyarli barcha maydoni keyinchalik ochib o'rganildi. Stratigrafik o'rganish ishlari arxeologik ekspedisiya tomonidan amalga oshirildi.

Xalinchaktepa (B-14) kvadrat shaklidagi maydon bo'lib, 50x50 maydonni egallaydi. Atrofidagi burchak qismida minoralar mavjud. Janubiy-g'arbiy burchagida esa asosiy maydon joylashgan. Devorlar balandligi 6-7 m, tepaning ayrim qismlari balandligi 4-5 metrni tashkil qiladi. ichki tomon qismlari ham batafsil o'rganib chiqildi. Bu yerdan tadqiqotchi E.Rtveladze Kanishka tangasini topgan (1974 yil). 1973 yil yodgorlikning qolgan qismi ham o'rganib chiqildi.

Xojaqiyatepa (B-21) Nazarbobotepaning g'arbiy va Oqqurg'onning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan.⁴¹ Yodgorlikning uncha katta bo'lmagan qismida topilmalar borligi aniqlandi. 1973 yil kuzida yodgorlikning janubiy qismi tahlil qilib chiqildi. Challatepa (B-16)Xojaqiyatepa yaqinida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 0,8 ga ni tashkil qiladi. tomonlari to'g'ri burchakli bo'lib, 110-80 metrga teng. Cho'ponota (B-17) yodgorligining umumiy maydoni 1 ga ni egallaydi. Ba'zi madaniy qatlamlarining chuqurligi 4,70 metr, qismlarining qalinligi 80 sm. qoratepada ham qazish ishlari olib borildi. 1974 yil Pidayev Sherobod tumanidagi ko'plab yodgorliklarni ro'yxatga oldi. Yirik yodgorliklardan biri – Jondavlattepadir. Sherobodning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. Shahar uzatish belgilari bo'lib, turar-joylarni ham qamrab olgan. Jartepa ham Sherobod tumanida joylashgan bo'lib, Tentaksoyning sohillarini qamrab oladi. Tepalikning umumiy maydoni 2,5 ga ni tashkil qiladi.

Jartepa 61-raqam bilan ro'yxatga olingan. Degriztepa uini turdagi yodgorliklar qatoriga kiradi. Arxeolog tadqiqotchi E.V.Rtveladze ushbu yodgorliklarni o'rganib chiqqan. Shahar xarobalari to'g'ri burchakli bo'lib, Degreztepaning umumiy maydoni 6 gektarga teng. Tomonlari 300x220 metrni tashkil qiladi. Ayrim qismlarining balandligi 10 metr ekanligi aniqlanadi. Devorlari, minoralari, mudofaa devorlari ham mavjud. Qorajardaryoning so'l sohillarida joylashgan yana bir yodgorlik – Beshkapa bo'lib, shahar o'rni to'g'ri burchakli ko'rinishga ega. O'lchami 350x250 metrga teng. Asosiy maydoni 10-11 metrni tashkil qiladi. xolchayon, Dalvarzintepa kabi yodgorliklar yuqori surxon vohasiga to'g'ri keladi. Xolchayon B-4, Dalvarzintepa B-3 ekanligi ma'lum bo'ladi. Xolchayon yodgorligi Sangardardaryoning o'ng sohilida joylashgan. Shahar ikkita tepalikdan iborat bo'lib, 19 ga maydonni egallaydi. Ulardan biri Qorabog'tepa bo'lib, to'g'ri burchakli shaklda bo'lgan, tomonlari 350x260 m. ikkinchisi kvadrat shaklda bo'lib, 300x300 metrga teng. Dalvarzintepa esa

⁴¹ Пидаяев Ш.Р. Поселение Кушанского времени северной Бактрии. Отв.ред. Массон В.М. Изд.: «Фан». –Т., 1978. –Стр. 15-17.

Denovning janubiy qismida joylashgan bo'lib, shahar to'g'ri burchakli ekanligi ma'lum bo'ladi. Arxeologik qazuv ishlari tizimli ravishda olib borilgan.⁴²

Xolchayon

Yozma manbalarda, Surxon vodiysida Sag'oniya (Chag'oniya)dan tashqari yana Bosand, Zinvor, Burob, Sangardak, Rigdasht, Kung'onak va boshqa shaharlar ham eslatiladi. Maqaddisiy (X asr) o'rta asrlarda Chag'oniya 16000 turar joy bo'lganligini qayid etadi. Bu raqam mubolag'a bo'lmasa kerak. Hozirgacha saqlanib qolgan ko'plab tepalar (ulardan qanchadan qanchasi vaqt o'tishi bilan yo'q bo'lib ham ketgan) o'rt asrlarga doir ashyoviy dalillarni o'z bag'rida yashirgan bo'lib, vaqt jihatidan mo'g'ullar istilosi davrigacha yetib kelgandir.

Arxeologik tadqiqotlar quldorlik davrida Surxondaryoning o'rta oqimi sohilida bosh Markaziy shahar Dalvarzintepa bo'lgan, degan xulosaga olib keldi. Dalvarzintepada Denovdan 30 kilometr janubda. Bu tepa qalin madaniy qatlamga ega yirik shahar qoldig'idir. Yetti gektargacha maydonni egallagan qal'a devor va handak bilan o'ralgan. Shaharga kirish joyi uning janubiy-sharqiy qismida bo'lgan. Arkning janub tomondan to'rtburchak shaklida dunyo tomonlariga mos holda shaharning o'zi tutashgan, u ham handaq va devor bilan o'ralgan.

Dalvarzintepa qal'asini o'rganishni biz qal'adan boshladik. 1962 yilning kuzida qo'rg'on devorining g'arbiy qismida (janubiy-g'arbiy burchak yaqinida) B.Turg'unov va D.Sidorovlar dastlabki qidiruv ishlarini o'tkazdilar, qalin istehkom devori ochildi.

Qal'a devorining yuqori qismi 5,2 metr qalinlikkacha yetgan. U yirik (45x45x12 sm) xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, usti loy suvoq qilingan.⁴³ Bu devor hozirgi kunda taglikdan 12,5 metr ko'tarilib turibdi. Keyingi qurilish bosqichida u tashqi tomondan 4,7 metr kenglikda qurilma bilan mustahkamlanan. G'ilof devor uch xil kattalikdagi 33x35x11 sm, 31x30x12 sm, 41x40x11 sm xom g'ishtdan

⁴² Пидяев Ш.Р. Поселение Кушанского времени северной Бактрии. Отв.ред. Массон В.М. Изд.: «Фан». –Т., 1978. –Стр. 18-24.

⁴³ Чағониён тарихи. Масъул муҳаррир О.Бўриев. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002, 16-17-бетлар.

tiklangan. G'ilov ularning loyligidayoq chizilgan belgilar bor: ikkita bir-biriga parallel to'g'ri yoki qiyshiq chiziq, burchaksimon chizma noto'g'ri chiziq, tuxumsimon shakl va boshqa belgilar. Bu devor ham tashqariga nishab qilib qurilgan, lekin suvalmagan; atrofi handaq bilan o'ralgan, ayni paytda tuproq bosgan pastqatlamlikdan iborat. Ikkinchi devor sog' tuproqdan 3,8 metr balandlikkacha saqlanib qolgan. Har ikkala devor ham antik davrga tegishlidir.

Qandaydir bir davrda Dalvarzintepa qal'asi tashlandiq bo'lib qoladi, istehkom qudrati inqirozga yuz tutadi, devorlari ivib tushadi. So'ngra devor ustida yangi qurilish qad ko'taradi. Biroq u xo'jalik ahamiyatiga molik edi, xolos.

Vayron bo'lgan antik davr devori ustida tiklangan binoning qachon qurilganligini juda aniqlik bilan belgilash mumkin. Ravoq ochilganda, g'ishtlar orasidan VI-VII asrga oid turk-sug'd tangalari chiqdi. Devor qurilishi uchun ishlatilgan to'rtburchak g'ishtlar ham shu davrga to'g'ri keladi. Dalvarzintepadagi antik davr istehkomining tashlandiq holatga kelib yemirilish jarayoni, aftidan, IV-V asrlarga to'g'ri keladi.

Mamlakat VI-VII asrlarda inqirozdan chiqqach, istehkom qulay, baland manzil sifatida qayta qurilib tiklandi, shaharning o'zi esa xaroba bo'lib qoladi.

Dalvarzintepa aholi maskani sifatida arablar istilosi chog'ida uzil-kesil tugadi, chunki arkda ham, shahristonda ham arablar kelgandan keyingi davrning izi yo'q. Chog'aniyonni 705 yili Qutayba bosib oladi va 737 yilda uning hokimi – Chg'onxudot arablarga o'lpon to'laydigan bo'ladi.

Xalq orasida hozirgi Dalvarzintepa juda qadimiy mamlakat poytaxtining qoldiqlaridir. Hukmdori afsonaviy qahramon Dol (Zol) bo'lgan, arablar bu shaharni xalifa hazrat Alining bevosita rahnamoligida egallaganlar, so'ngra bu shaharda hayot butunlay so'ngan, degan naql yuradi.⁴⁴ Dalvarzintepaning juda katta joyni egallaganligi, qurilishlar zichligi, arxeologik qatlamlar qalinligi mazkur qadimiy mamlakat miloddan oldingi birinchi asrda va milodning dastlabki yillarida barq urib yashnab turgan viloyat markazi bo'lganligidan dalolat beradi.

⁴⁴ Чағониён тарихи. Масъул муҳаррир О.Бўриев. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002, 18-19-бетлар.

Chag'oniyon qayd etilgan antik davr ma'lumotlari bizga yetib kelmagan. Bu viloyat dastlab arablar istilosidan oldingi vaqtga oid tarixiy manbalarda eslatiladi. VII asr (Xitoy) solnomasida shunday deyiladi: «Chingan-yen-na – bu mamlakat mashriqdan mag'ribga 400 li va shimoldan janubga 50 li ga yaqin maydonda yastangan. Poytaxti aylanasi taxminan 10 li. Sharq tomonda Xvo Lo-mo degan joyga borib tutashadi».

O'n li taxminan 5 km ga teng. Bu yerda gap Chag'oniyonning an'anaviy markazi Dalvarzintepa to'g'risida borayotgan bo'lsa kerak. Chag'oniyon janubda Termiz viloyatiga tutashgan edi. Shimolda esa VII asr manbalarida Xorun yoki Oxarun deb qayd etilgan.⁴⁵

Ibn Xurdodbek va qudama (IX asr) Chag'oniyonidan 6 (yoki 3) farsax uzoqlikda Navandak, undan 7 farsax masofada Xamevaron nomli joylar bo'lganligini yozadilar.

Dalvarzintepa antik davrda davlat ma'muriyati, yirik ibodatxonalar, iqtisodiy aloqa tarmoqlari, harbiy salohiyat mujassamlashgan katta tarixiy-madaniy viloyat markazi, yirik markaziy shaharlar sirasiga kirgan. O'zidan kichik bo'lgan ko'plab aholi qarorgohlari unga bo'ysungan. Shunday bo'ysunuvchi shaharlar sirasiga Xolchayon ham kirgan.

Xolchayon xarobalari Surxondaryoning o'ng sohilida, aniqrog'i, uning qadimgi qayirida, hozirgi Denov tumanining Xolchayon shirkat xo'jaligi hududida joylashgan. Xolchayon qishlog'idagi paxta dalasining shimoliy qismida bo'rtib chiqqan do'ngliklarini ko'rish mumkin. Ulardan ba'zilarining nomi bor, bir qismi nomsiz. Ayrim tepaliklar shurf joylar tagida qolmoqda yoki dalalarni haydab tekislash jarayonida yo'q bo'lib ketyapti.⁴⁶

Bu do'ngliklarning eng yirigi Qorabog'tepa deb ataladi. Ayni paytda uning kattagina qismida imoratlar qurilgan, pastqamlik qismi esa ekinzorga aylantirilgan. Bu joyning yuza qismidan hamda chuqur chuqur bo'lib qolgan yerlaridan topilan

⁴⁵ Чағониён тарихи. Масъул муҳаррир О.Бўриев. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002, 20-21-бетлар.

⁴⁶ Чағониён тарихи. Масъул муҳаррир О.Бўриев. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002, 22-23-бетлар.

arxeologik ashyolar unchalik ko'p emas, aksari antik davrga oid sirланmagan sopol parchalaridir. So'nggi feodalizm davriga xos sirланган sopol bo'laklari ham uchraydi.

Qoratepadan yarim chaqirishim g'arbda bir-biriga tutash do'ngliklardan tashkil topgan Xonaqotepa joylashgan, yo'l bo'ylab yastangan pastroq do'ngliklar ham bor. Ulardan ikkitasi janubiy-g'arbda (Shayittepa va Sichqontepa), uchitasi sharqda (To'g'anoqtepa va ikkitasi nomsiz), bitta tepa g'arbda, to'rtta do'nglik shimolda (To'rabektepa, Maslahattepa va ikkitasi nomsiz) joylashgan. Xo'jalik a'zosi A.Gulmirzayev ma'lumotiga ko'ra, 50-yillarda yer tekislanayotgan paytda Maslahattepadan tosh poydevor va tosh devor qoldiqlari, tangalar, qizg'ish gilbalchiqdan ishlanib quydirilgan, ya'ni terrakot haykalcha, ko'plab sopollar va hatto tosh haykal sinig'i ham chiqqan. Afsuski, ular hammasi yo'q bo'lib ketgan edi. Darvoqye, xo'jalik a'zolaridan biri bizga terrakot haykalcha boshchasini va uch dona tanga berdi. Bu tangalardan ikkitasini Soter, Megas, bittasini Vasudeva I zarb ettirgan ekan. Maslahattepa jarligida va uning atrofida antik davrga oid sopol parchalari anchagina. Maslahattepadan 300 metr shimoldagi pastroq nomsiz tepada ham antik davrga oid sopollar uchraydi. Bu joydan yerli aholi topib bizlarga taqdim etgan ikkita tangadan birini Soter, Megas, ikkinchisini esa «badaviy Geliokl» zarb ettirgan bo'lib chiqdi.

Maslahattepadan yarim kilometr chamasi shiomldagi joylardan dehqonlar bizga sopol parchalaridan tashqari yana antik davrga taalluqli oq toshdan yo'nilgan tag-asos, suyakdan ishlangan yalang'och ma'buda haykali, mis tangalar ham topib berishdi.⁴⁷ Tangalardan uchitasi Soter, Megas, bittasi xushvika hukmronligida zarb etilgan.

Xonaqotepaning g'arb tomoni ancha buzilib ketgan, uni shu joydan o'tadigan yo'l kesib tushgan, shimoliy-sharqiy qismi traktor ta'mirlash ustaxonasi hovlisi va imoratlari bilan band, unga tutash do'nglikda esa xo'jalik a'zolari uy qurib olishgan, janubiy-sharqiy burchakda tegirmon bor.

⁴⁷ Чағониён тарихи. Масъул муҳаррир О.Бўриев. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002, 24-25-бетлар.

Biroq traktor ta'mirlash ustaxonasining hovlisida kvadrat shakldagi do'nglik yastangan, bu bizning dastlabki tadqiqot ishimiz bo'ldi.

Xonaqotepa va Qorabog'tepada Xolchayon shahristoni qatlamlarini aniqlash maqsadida yerning tabiiy qatlamlarigacha chuqur arxeologik shurflar qazidik.

Xolchayonni tadqiq etish shuni ko'rsatdiki, Surxon vodiysining asosiy qismini tashkil etgan Chog'aniyon keng obodonlashtirish jarayoni miloddan oldingi birinchi ming yillikning o'rtalarida sodir bo'lgan. Bu joylarni o'zlashtirish esa ancha oldin boshlangan bo'lishi ham mumkin. Tom ma'noda o'zlashtirish ma'lum darajada mukammal sug'orish tarmoqlari barpo etilgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Yozda qorning erishi va bahorda yog'ingarchiliklar paytida to'lib-toshib oqadigan daryo ko'pincha o'z o'zanini o'zgartirib turar, ilk chap sohilni yuvib va o'pirib, jar qilib ketar, to'qayzorlar va o't-o'lanlar qoplagan o'ng sohilni esa suv bosar edi. Ishni markazlashgan tarzda tashkil etgan taqdirdagina, tirgakli to'g'onlar, katta-kichik ariqlar, zovurlar bilan ta'minlangan murakkab sug'orish tarmog'ini yaratish mumkin bo'lardi. Bular hammasi Chog'aniyon o'sha vaqtlardayoq yuksak darajada uyushgan davlat edi, deb taxmin qilish mumkin.

Xonaqotepada qazilgan shurfdan olingan ma'lumotlar bu joyda hayot butun antik davrda deyarli uzluksiz davom etganligidan dalolat beradi. Biroq imoratlar xarobaga aylangani, ustiga yana qurilishlar qad ko'targanligini tasdiqlovchi qoldiqlar mazkur yerda tinch hayot qandaydir voqyealar oqibatida vaqti-vaqti bilan buzilgan, degan xulosaga olib keladi.

Qadimiy daryo o'zanining qum-shag'allari ustida o'rnashgan eng quyi madaniy qatlam miloddan avvalgi IV-III asrlarga to'g'ri keladi.⁴⁸

Bu hudud Qo'y To'rabektepa do'ngligi bilan tugaydi. Chorva fermasi qurilganda bu tepaning chetlari qirqilib, tekislanib ketgan va mozordan iborat qismigina saqlanib qolgan. Do'nglikning balandligi 3,5-4 metr, antik davr imorati

⁴⁸ Чағониён тарихи. Масъул муҳаррир О.Бўриев. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002, 26-27-бетлар.

qoldig'iga o'xshaydi. Sopol bo'laklari xom g'ishtdan devor va qirqma toshlardan ishlangan poydevor aniqlandi.

Erta bahora yerlar endi haydalib ekilgan va g'o'za nihollari maydonni hali qoplab olmagan paytda bu yerlardagi katta-kichik tepaliklar oralig'ida ko'plab arxeologik ashyolar sochilib yotganini ko'rish mumkin. Antik davrga xos arxeologik ashyolar siniqlari Xonaqotepadan shimolga 1 kilometr, janubga 400 metr, g'arbga 700 metr chamasi, sharqqa Qorabog'tepagacha maydonda tarqalgan. Ashyolarning tarqalish chegarasiga qarab, bu yerdagi qadimgi qarorgoh shimoldan janubga 2 kilometr va sharqdan g'arbga 1,5 kilometr maydonni egallagan desa bo'ladi.⁴⁹

Mahalliy keksalarning aytishicha, Xolchayon tevarak-atrofi hali o'zlashtirilmagan paytda, bu yerlarda baland-past tepaliklar anchagina ekan. Qadimiy qurilishlar o'rnini anglatuvchi bu do'ngliklar keyinchalik yerlarni tekislash, haydash vaqtida yo'qolib ketgan.

Xolchayonning umumiy arxeologik – topografik manzarasi bu joyda qishloq xo'jalik faoliyati bilan bog'liq manzilgoh bo'lganligi va Dalvarzintepaga o'xshash handaq va qo'rg'on bilan o'rab olingan shahar mavjud bo'lmaganligini ko'rsatadi.

Xolchayon o'rnida joylashgan antik shahar qoldiqlari doirasida o'rta asrlarga oid arxeologik ashyolar topilmalari juda oz miqdorda, Qo'y – To'rabektepada, undan g'arbdagi bir do'nglikda, undan shimolroqda joylashgan. Yunustepada undan g'orbdagi o'rta asrlarga oid sirlangan sopol parchalari qayd etildi.

Ilgariroq Yunustepa tevaragidan topilgan tangalardan biri Shayboniylar davrida, ya'ni hijriy 911 (milodiy 1505-1506) yilda zarb qilingan dirham ekanligi ham ma'lum bo'ldi.

Xolchayonning janubida va janubi-sharqida ham o'rta asrga oid kichikroq aholi maskanlari qoldiqlari saqlanib qolgan. Ulardan yirikrog'i Qozoqtepadir. Bu yerda pishiq g'ishtlar X-XII asrlarga xos sopol, o'rta asrlar mis tangalari uchraydi.

⁴⁹ Чағониён тарихи. Масъул муҳаррир О.Бўриев. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002, 28-29-бетлар.

Bu joydan topilgan ikkita qadahsimon idish tepalikning asosida Kushonlar davri qatlami yotan deb faraz qilishga imkon beradi.

Xolchayonga yetmasdan yo'l yoqasidagi ulkan qadim chinordan bir chaqirimcha janubda joylashgan gurgaktepadan ham o'rta asrlarga oid och yashil kulrang sopol parchalari topildi; ustiga to'q jigarrang va och jigarrang naqshlar solingan. 1960 yili bu yerda pishiq g'ishtdan qurilgan gumbazsimon tim ham topilgan bo'lib, uni yerlik aholi buzib olishgan. Hozirgi Xolchayon jamoa xo'jaligidagi Pistamozor qo'rg'oni yaqinidagi eski qabriston va Shaytontepa joylashgan. Ikkala tepalik ham toptalib, yassi bo'lib ketgan, u yerda sirlanmagan sopol parchalari uchraydi. Shu yerda o'z bag'rida X-XII asrlarga oid sirlangan va sirlanmagan sopol buyumlarni saqlangan kichikroq qarorgoh qoldig'i Chimqo'rg'on tepa ham bor. Xolchayonda bizning tadqiqotlarimiz, asosan, Xonaqotepaga qaratiladi.⁵⁰

Bandixon qishlog'i (Surxondaryo viloyati)ning shimoliy atrofida Yalangtushtepa shahar o'rni mavjud. Nekropol xususiyatiga ega. 15 ta aniq inshooti saqlanib qolgan, xolos. Birinchi yama (chuqurlik) kvadrat shaklidagi dafn qilish joyi, inshooti bo'lib, 640x590 sm. 90° li burchak ostida bir-biriga yaqin joylashgan ikkita kameradir. Kvadrat shaklidagi pishiq g'ishtdan qurilgan o'lchami 35x35x15 sm. Kameralarda suyaklar, matolar mavjud. Birinchi kameraning g'arbiy burchagidan oltita bosh suyagi topilgan. Qolgan suyaklar tartibsiz. Joylashtirilgan 2-kameraning devorlari ostidan 11 ta bosh suyagi olindi. Nausdagi qazish ishlari jarayonida 20 ta sopol idish, temir pichoq, uchi o'tkirlangan qurollar, bronza chashka, oyna, muhr, sirg'a, taqinchoq, brasletlar ham topildi. Shuningdek, 2-kameradan 11 ta tanga olindi. Ular Kanishka, Xuvishka, Kdfiz II larga oid bo'lgan tangalardir. Keyingi naus yaxshi saqlangan. To'g'ri burchakli, o'lchami 730x480 sm, ikki xonadan iborat: 1) 370x230 sm; 2) 265x235 sm. Kameralar devorining kengligi 60-70 sm. Pishiq g'ishtlarning o'lchami 33x33x14 sm. Saqlanib qolgan qismning balandligi 20-30 sm. Dafn qilish tartibi deyarli bir ko'rinishga ega. Ikkala

⁵⁰ Чағониён тарихи. Масъул муҳаррир О.Бўриев. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002, 30-34-бетлар.

kameradagi bosh suyaklar 200 ga yaqin. Turli xil ko'rinishdagi buyumlar, sopol idishlar, Kanishkaning uchta tangasi ro'yxatga olingan. 9-nausning pol qismidan noma'lum podshoning tangasi topildi.

Termiz rayonidagi qabrlar (dafn qilish inshootlari). Termizdan 18 km shimoliy masofada L.I.Albaun unchalik katta bo'lmagan tepalikni topdi. Kvadrat shaklida bo'lib, o'lchami 18-18 m. Qurilish qismi ikki metrli, g'isht va paxsadan ishlangan. Dastlabki qism markazida kvadrat shakldagi xona joylashgan (6x6 m). yo'lak kengligi qurilgan. Yo'lak devorlari suvoq qilingan. Supa qismlari ham mavjud. Yo'laklardan birida kishilarning bosh suyaklari topildi. Sopollarning xususiyati va g'ishtlarning o'lchami (32x32x13 sm) L.I.Albaum tomonidan o'rganib chiqildi. Ushbu inshootlar masalasi asta-sekin o'z yechimini topib bordi.⁵¹

Ko'hna Termizdagi qazish ishlarida ham dafngohlar topildi. Jamoaviy dafn qilish ro'y bergan. O'nga yaqin skletlar bir-biriga yaqin joylashgan. Alohida turgan skletlar ham uchraydi. Kiyimlari ham saqlab qolingan. Stratigrafik ma'lumotlarga asoslansak, ushbu dafngoh va buyumlar antik davr uchun xos bo'lgan. Qoratepadagi qazish ishlarini B.Ya.Staviskiy amalga oshirdi. Kushonlarning monastrlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. 1-kompleksda 13 ta sklet topildi. Ularning yoshi turlichadir. Ular keyingilari bilan birga dafn qilingan. Teshik mis tangalar, taqinchoqlar ham shular qatorida. Bir qancha sopollar ham topildi. Ibodatxona yyo'laklari atroflarida ham dafn qilingan holatlarni kuzatamiz. Dafn qilingan kishilar soni o'ndan kam emas. Bu yerdan bronza sirg'a, temir, kumush buyumlar, kumush tangalar ham olindi. Tangalar Vasudevaga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi. Kishilar yon tomoni bilan dafn qilinib, qo'llarida tangalar qo'yilgan. Yetarli tasdiq bo'lmasa-da, bunday dafn qilishni epidemiya bilan bog'liq deb hisoblashadi.

⁵¹ Литвинский Б.А., Седов А.В. Культы и ритуалы Кушанской Бактрии Пограбеальный отряд. Отв.ред Бонгард-Левин Г.И. Изд.: «Наука». –М., 1984. –Стр. 87-88.

L.I.Albaum Fayoztepada qazish ishlarini olib borishdi. Bu yerdan budda monastri topildi. O'nga yaqin dafn markazlari aniqlandi. Buyumlar kam uchraydi. Dafn qilingan kishilarning qo'llari yonida tangalar borligi aniqlandi.⁵²

Baqtriya va Sug'diyonaning shaharlarining ko'pchiligi kvadrat shaklda yoki to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lgan. Bu shaharlar qalin devorlar bilan o'ralgan. Surxondaryo shahridagi eng katta joylardan biri bo'lgan Dalvarzintepa devorlarining tuzilishi va ularning qay tarzda joylashganligini aniqlash imkoniga ega bo'ldik. «Pastki shahar»ning sharqiy qismida 70 metr naribroqda qazilma ishlar olib borildi, ular natijasida ikki davrning ma'lumotlarini aniqlab berishga imkon yaratdi.

Shu narsa aniqlandiki, «Pastki shahar» devorlarining tozalanishi natijasida Iskandar Zulqarnaynning hujumi, Baqtriyaga qarshi qaratilgan hujum natijasida qolgan dog'lar, ya'ni qoldiqlar aniqlanib o'rganildi.

Dalvarzintepa maqbarasidan topilgan haykallar, rassomchilik qiziqishlarini o'zida aks ettirgan. Ular sopoldan yasalgan. Uning ba'zi bir qismlarining ustki qismi gips bilan qoplangan. Shunday bo'lsa ham shu narsa aniqlanganki, bosh haykallarning ba'zi bir qismi sal keyingi davrlarda yasalgan va u ham ustki qismi gips bilan qoplangan. Birinchi haykallar esa ko'rinib turibdiki, Buyuk Kushonlarning – bo'lishi mumkinki, Kanish davrida va u davridagi buddaviylik kushonlar orasida juda katta maydonda tarqalib ketgan davrda yasalgan.

Haykallarga kichkina maydonchalar bilan birgalikda yasalgan bo'lgan. Shunday haykallardan biri 2,5 metr uzunlikda, qolganlari esa unchalik ham kattalikda bo'lmagan. Buddalarning boshi aks ettirilgan va ularning yuz qismi deyarli bir-biriga o'xshash, ammo biri yuz qismi shilliq qurt yuziga qandaydir o'xshash, boshqasi esa boshqa bir narsalarga o'xshash shakllarda qurilgan.

Haykallarning bir-biri orasidagi bog'lanishni aniqlash imkoni bo'lmadi, ammo taxminiy ta'riflar qayd etilgan. Katta haykallar Budda haykallaridan tashqari ular yuz foiz aniq bo'lmasa ham buddistavlardir, ammo induiy xudolarining bosh

⁵² Литвинский Б.А., Седов А.В. Культы и ритуалы Кушанской Бактрии Пограбеальный отряд. Отв.ред Бонгард-Левин Г.И. Изд.: «Наука». –М., 1984. –Стр. 89-92.

xudolari ham bo'lishi mumkin. Ular buddaviylikda muhim ahamiyatga ega bo'lishi ham mumkin. Gandxar haykallarida ular shunisi bilan ham mashhurki, ular jamoaviy tuzilgan, ya'ni jamoa – to'plamlardan yasalgan⁵³ va ularning mavzusi Buddaga bag'ishlangan. Ingosalar g'orida saqlangan va yana Ingrosalar Indra va Braxma, ularning uchasi ham bor – kattaliklari ham deyarli bir xil. Kichkina shakldagi haykallarga kelsak, ular gipsda yasalgan bo'lib, ular orasida Buddani o'quvchilar: yosh yigit katta tyurbanda va uning yuz qismi teppaga qaratilgan. Ko'rinib turibdiki, Buddaga qaratilib, jangchining boshida bosh kiyim, ayolning pastki qismi esa kiyim bilan o'ralgan. Undan ham kichikroq haykallar qo'l bilan yasalgan va ularga kichik-kichik bezaklar yopishtirilgan.

Matrisa – Kampirtepadan topilgan qolip, salgina jarohatlangan va kontrelyefning maydonlarida aniqlangan. Bo'lishi mumkin bo'lmasligi ham mumkinki, topilgan yuz qismning haykali rimliklarning yuz qismiga uncha ham o'xshamasa ham ulardan biri portretli bosh qismi Ulug' Mitridatga bag'ishlanib yasalgan va yana sopolli bosh qism taxminan Taxi-sangina maqbarasining yunon-baqtriyavish shahzodasiga bag'ishlanib yasalgan. Ularning hammasi bir xil usulda yasalgan, xuddi tarixiy-ma'naviy rivojlanishlar davridagi san'at asarlaridir. Shunday bo'lishi mumkinki, Kampirtepalikdagi qolip, marmar yoki bronza haykallarining bosh qismidan olingan II-I asrlarda bizning eramizgacha, ammo undan keyinroq foydalanishgan.

Birinchilardan bo'lmagan haykallar Shimoliy Baqtriyada haykalcha ayol malikaning oyoqlari bilan – xuddi shulardek, ammo boshidan judo qilingan haykalchalar Xolchayonda topilgan va yana Barattepada ham topilgan. Oyoqlari malikalarnikidek bo'lgan shaklli haykalchalar ko'pincha qo'llari ko'krak qismi tomonidan va bu tarzda haykalchalar juda ham tarqalgan.⁵⁴ Ayniqsa, Mesopotomiyada ular har xil shaklda bo'lgan, ularning tuzilishi qo'li ko'krak qismida, qorin qismi to'g'risida. Ko'rinib turibdiki, u yerdan bu ikonagrafiya importli namunalar bilan Baqtriyaga kirib kelgan.

⁵³ –Ctp. 37-44.

⁵⁴ –Ctp. 52-63.

Ancha keyinroq Shimoliy Baqtriyada boshqa turdagi yalong'och, aniqroq qilib aytganda esa, ba'zi joylari, ya'ni yarimyalong'och, har xil taqinchoqlar bilan bezatilgan, qo'l – bilak uzuklari bilan nafaqat qo'lida, balki oyoqlarida ham. U aniq Kushon davriga hinol pastikaviy san'atidan kelgan, ya'ni ko'chirilgan bo'lib, bu yerda uning ichki tuzilishi boshqacha bo'lgan.

Bizning milodimizning birinchi asrlarida ayol xudo Baqtriyada ko'pincha kim nechta kiyimlarga kiyilgan bo'ladi. Buyuk ayol xudolariga Anaxit, Nanoy, Androxsha, Vanindoy (oxirgi aytilgan uchta ismlar Kushon tangalarida aks ettirilgan). Ko'rinib turibdiki, bu munosabatda bu figuraning bir qismi Kampirtepadan og'ir kiyimlarda chop qo'lida yalang'och chaqaloq o'g'il bola, o'ng qo'lida esa aniqlanmagan qandaydir narsa yoki qushga yoki boshqa bir tushunarsiz narsaga o'xshaydi.

Shu bilan bir qatorda milliy xalq orasida hali ayol xudo oyoqlari bilan yasalgan haykallar shuni ko'rsatadiki, u sopoldan qo'l yordamida yasalgan ekanligi aniqlangan. Bu haykalcha binolar orasida topilgan, ya'ni Kampirtepada. Qizig'i shundaki, shahar bo'shatilganidan so'ng ular topilgan. Xuvish davrida, uning tangasi ham shu tarafda topilgan. Haykalcha oddiy yo'l bilan yasalgan – proporsiyalari bo'lmagan, katta, shar shaklidagi bosh qism (yuz qismi saqlanib qolmagan) juda qisqa bo'lgan tan qismi tekis, salgina qiyshaygan oyoqlari ostidagi yer qismi, yopishtirilgan yarim shardagi ko'krak qismi va taniqchoqlar bo'yin qismi atrofida.⁵⁵ Qo'llar yon tomonlarga uzatilgan, chap qo'lida qush (ko'rinishidan kabutarga o'xshaydi), o'ng qo'lida esa sharik. Bu haykalcha qizil ranga bo'yalgan, qadimdan ko'p xalqlarda mo'jizaviy xususiyat bilan ajralib turgan. Faqatgina yopishtirilgan alohida soch turmagi orqa tomonga yig'ishtirilgan qalin bir joyga yopishtirilgan bo'lib, u qora rangda.

⁵⁵ Материалы Тохаристанской экспедиции. Выпуск 2. Археологические исследования Кампиртепа. Под ред. Ртвеладзе Э. Изд.: «San'at». –Т., 2001. –Стр. 79

XULOSA

O'zbekistonning janubiy sarhadlarida antik davr yodgorliklari ko'pchilikni tashkil qilib, ular Kampirtepa, Dalvarzintepa, Ayritom, Qoratepa, Xolchayon, Fayoztepa, Zartepa kabilardir. Arxeolog-tadqiqotchilar, muzey ekspeditsiyalari doimiy qazish, tadqiqot ishlarini olib borishgan. Qoratepa yodgorligi Ko'hna Termiz shahar o'rnining shimoliy-g'arbiy burchagida joylashgan. 1950-yildan boshlab Qoratepada qazish ishlari olib borildi.

Bu yodgorlik, ya'ni Qoratepa miloddan avvalgi III-II asrlarga oiddir. Inshootlar, kichik qabrlar, xonalar, arxeologik buyumlar aniqlandi. Topilmalar ichida sopol buyumlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Budda monastrlari, yozuvlar, Kushon podsholarining tangalari ham ushbu yodgorlikdan topilgan. Yozuvlarning mazmuni tadqiqotchilar tomonidan aniqlab olindi. Sopol idishlarga ko'plab yozuvlar bitilganligi ma'lum bo'ldi.

Umuman, qadimgi vaqtda Surxon vohasi Baqtriya tushunchasi bilan birgalikda ifodalangan. Bu yerdagi yana bir muhim yodgorliklardan biri Xolchayondir. Arxeologik ekspeditsiya Xolchayonda kompleks qazish ishlarini tizimli ravishda amalga oshirishgan. Xolchayon shahar xarobasini bir necha qismlarga bo'lishadi. Xonaqotepa, Qorabog'tepa, Maslahattepa, Qirilgantepa kabi shartli nomlar qo'yilgan. Inshootlar, xonalar, arxeologik topilmalar alohida ahamiyat kasb etadi. Gips, tosh bloklar, uylar, dala hovli xonalari tahlil qilib chiqilgan. Budda yodgorligida ko'plab haykallar ham topildi. Kishilarning bosh qismi tasvirlangan haykalchalar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Xolchayonda badiiy madaniyat yuksak bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Dalvarzintepaning asosiy maydoni shahar o'rnining janubiy-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, stratigrafik kuzatuv asosida batafsil o'rganib chiqildi. Ushbu yodgorlikda ko'plab madaniy qatlamlar mavjud. Ularning umumiy o'lchami, turarjoy mavzelari, xonalarning holati ko'rib chiqildi. Devorlarining ayrim qismlari saqlanib qolgan bo'lib, asosan, pishiq g'isht, paxsa bloklar ishlatilgan. Devorlar loy bilan somon aralashmasidan suvoq qilingan. sopol idishlar, taqinchoqlar, skletlar madaniy qatlamlarning deyarli ko'pchiligida uchraydi.

Dalvarzintepada xonalar guruhlarga bo'lib o'rganilgan. Turar-joylarning o'ziga xos xususiyati shundaki, badavlat shaharliklar uchun maxsus kvartallar qurilgan. Dalvarzintepa devorlariga turli xil rasmlar chizilgan bo'lib, ularning ayrimlari yaxshi saqlanib qolgan. Ibodatxonalar shahar o'rnining barcha qismlarida uchraydi. Saroylar, ayvonlar, dafn qilish joylari ham atroflicha o'rganib chiqildi.

2000-yil Surxon vohasidagi Kampirtepa yodgorligi ham qazib tekshirib chiqildi. Kampirtepaning asosiy obyektlari uchta bo'lib, tadqiqotchi A.Voskovskiy, Sverikov, E.Rtveladzlar izlanishlar olib borishdi. Kampirtepadan ko'plab arxeologik topilmalar ashyoviy dalil sifatida olindi. Dafn qilish joylari kichik va katta kameralari bilan birgalikda suratga olingan. Ulardagi suyak buyumlarga ham alohida e'tibor qaratilgan. L.Sverikov Kampirtepaning har bir minorasiga alohida sharh, tushunchalar berib o'tgan. Devorlarining qurilish texnikasi, qurilish ashyolarining ishlatilishi baholanib o'tilgan.

Ko'hna Termiz O'zbekiston janubiy sarhadlaridagi yirik yirik tarixiy yodgorliklaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qal'a, devorlar, xo'jalik xonalari, kvartallar kuzatuv ostida, doimiy tekshiruvdan o'tkazildi. Surxondaryo viloyat muzeyda ushbu yodgorliklardan olingan barcha arxeologik buyumlar saqlanib kelinmoqda. Zartepa, Fayoztepa ham arxeologik ekspedisiya a'zolari tomonidan o'rganib chiqildi. Loy bilan somon aralashmasidan suvoq sifatida foydalanish barcha makonlarda kuzatiladi. Kampirtepadan topilgan rangli metallar alohida ahamiyat kasb etadi. Qurol-yarog', yoritgich, sirg'alar, tugma, shaxsiy buyumlar, tangalar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ, -Т., «Шарқ», 1998.
2. Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака) - Т., 1975.
3. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапн развития городской культурн Ташкентского оазиса. -Т., 1982.
4. Вебер М. Избранное. Образ общества. Гл.Ш. Город. -М., 1994.
5. Виноградов А.В., Итина М.А., Яблонский Л.Т. Древнейшее население низовий Амударьи. - М., 1986.
6. Воробьева М.Г. Дингильдже. Усадьба середины I тыс. до н. э. в древнем Хорезме. - М., 1973.
7. Вуллел. Забытое царство - М., 1986.
8. Вяткин В.Л. Афрасиаб-городще былого Самарканда. -Самарканд. 1927.
9. Галочкина Н.Г. Новые данные об исследовании памятников эпохи бронзы.//Кетмень-Тюбе. Археология, история. Фрунзе, -1977.
10. Григорьев Г.В. Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе УзССР в 1934 г. -Т., 1935.
11. Губаев А.Г, Археология Туркменистана. - Ашхабад. 1989.
12. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней.-Т., 1957.
13. Гулямов Я.Г. Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. - Т., 1966.
14. Древняя Бактрия. Под ред. И.Т.Кругликовий., -Л. 1974.
15. Древняя Бактрия. Под ред. И.Т.Кругликовой. -М., 1976.
16. Древняя Бактрия. Под ред. И.Т.Кругликовой. -М., 1984.
17. Городская культура Бактрии – Тохаристана и Согда. Античность, раннее средневековье. Под ред. Аскарлов А.А. Изд.: «Фан». –Т., 1987.

- 18.История, археология термезская Археологическая экспедиция. Том II. Изд.: «Акад. Наук». –Т., 1945.
- 19.Материалы Тохаристанской экспедиции. Выпуск 2. Археологические исследования Кампыртепи. Под. ред. Ртвеладзе Э. –Т., 2001.
- 20.Древности Кара-Тепе. Отв.ред. Ставиский Б.Я.
- 21.Ртвеладзе Э.В. Историческое прошлое Узбекистана. Изд. «Sar Qalam». –Т., 2005.
- 22.Далварзинтепе Кушанский город на юге Узбекистана. Отв. ред. Ремпель Л.И. Изд.: «Фан». –Т., 1978.
- 23.Пугаченкова Г.А. Халчаян // К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Отв.ред. Ремпель Л.И. Изд.: «Фан». –Т., 1966.
- 24.Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. Под общ.ред. Ставиского Б.Я. –М., Изд. Вост. Лит., 1969.
- 25.Буддийский культовый центр Кара-тепе в старом Термезе. Под общ.ред. Ставиского Б.я. Изд. Вост.лита. –М., 1972.
- 26.Деревня и средневековая культуры Сурхандарьи. Под ред. Ртвеладзе Э.В. и Пидаев Ш.Р. Изд.: «ЎзМЭ». –Т., 2001.
- 27.Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия – Тохаристон. Отв. ред. Лунин Б.В. Изд.: «Фан». –Т., 1990.
- 28.Литвинский Б.А., Седов А.В. Культы и ритуалы Кушанской Бактрии Пограбеальный отряд. Отв.ред Бонгард-Левин Г.И. Изд.: «Наука». –М., 1984.



















